

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/30.12. 2019.Fil.46.03. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PRIMOV AZAMAT ISKANDAROVICH

SHARAFUDDIN ALI YAZDIYNING “ZAFARNOMA” ASARI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Science (DSc) in
Philological Sciences**

Primov Azamat Iskandarovich

Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari leksikasi..... 3

Primov Azamat Iskandarovich

Lexsics of the work “Zafar-name” by Sharafiddin Ali Yazdi 37

Примов Азамат Искандарович

Лексика произведения «Зафар-наме» Шараф-ад-дина Али Йезди 69

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ 75

Пова

Appendix

Приложение 79

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/30.12. 2019.Fil.46.03. RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PRIMOV AZAMAT ISKANDAROVICH

SHARAFUDDIN ALI YAZDIYNING “ZAFARNOMA” ASARI LEKSIKASI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.1.DSc/Fil121 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tai.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Dadaboyev Hamidulla Aripovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ko'chimov Shuhrat Norqizilovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Husanov Nishonboy Abdusattorovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.03 raqamli Ilmiy kengashning "21-noyabr" 2024-yil soat 11⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 5-uy.

Tel: (871) 233-36-50, faks: (871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (61) raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 700100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "7-noyabr" kuni tarqatildi.

(2024- yil "7-noyabr" daqiqa 8-raqamli reestr bayonnomasi)



N.M.Mahmudov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

A.M.Hasanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

D.S.Xudayberganova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida o‘zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlariga tegishli yozma manbalarning til xususiyatlari, leksik-semantik, etimologik- funksional, uslubiy jihatlarini yoritish, muayyan matn yaratilgan davr tili taraqqiyotiga qo‘shgan ulushini aniqlash, shu asosda tilning rivojlanish qonuniyatlari va dinamikasini ko‘rsatib berish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan sanaladi. Zero, ijodkorlar, tarixchilar tomonidan yaratilgan yoki tilmochlar tomonidan o‘zbekchaga o‘girilgan asarlar tili tahlili o‘zbek tili tarixiga oid ma‘lumotlarni kengaytirish, lisoniy birliklarning leksik-semantik, etimologik, stilistik va boshqa xususiyatlarini aniqlash, matn bilan bir davrda yoki undan oldin yoxud keyin yaratilgan asarlar so‘z boyligidagi umumiy va farqli tomonlarni ko‘rsatib berish, shuningdek, manba tilidagi leksik birliklarning hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalariga munosabatini belgilashda muhim ahamiyatga molik.

Dunyo tilshunosligida bugungi globallashuv davrida har bir xalqning tarixi, tili, azaliy qadriyatlarini saqlab qolish, asrab-avaylash maqsadida yozma obidalar tilini o‘rganish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan XV asr o‘rtasida Sharafuddin Ali Yazdiy tomonidan fors tilida bitilgan “Zafarnoma” asarining XVI asr boshida eski o‘zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasi eski o‘zbek adabiy tilining nodir yodgorligi ekani, unda asar tarjima qilingan davr tili sathlarining deyarli barcha xususiyatlari aks etgani, tarjimon asarni o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida adabiy tilni xalq jonli so‘zlashuv tilida qo‘llanishda bo‘lgan leksik va grammatik elementlar hisobiga boyitgani ayon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida “Zafarnoma”ning eski o‘zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasi mustaqillikka erishgunga qadar o‘rganilmadi. Istiqloq yillarida Amir Temur tarixi va faoliyati haqida yozilgan asarlarni tadqiq qilishga qo‘l urildi. “Zero, bizning havas qilsa arziydigan ulug‘ tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor”¹. Amir Temurning sarkardalik mahorati, yuksak harbiy taktika va strategiyasini o‘rganish masalasiga hukumat darajasida e‘tiborning qaratilishi Sohibqironga daxldor tarixiy asarlar til xususiyatlari bo‘yicha olib borilayotgan izlanishlarning bajarilish samaradorligini oshiradi: “Biz nega shu kabi buyuk ajdodlarimiz tarixini yaxshi o‘rganmaymiz? Uzoq yillar ura-ura bilan umuman boshqalar tarixini, boshqalar g‘alabasini miyamizga singdirishgandi. Mutasaddilarga topshiriq berdim – biz birinchi navbatda o‘zimizning bobolarimiz tarixini o‘rganishimiz kerak”². “Zafarnoma”da Amir Temurning harbiy mahorati, jang olib borish usullari o‘sha davrga oid ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, maishiy, diniy va boshqa sohalarga xos ma‘lumotlar aks etgan bo‘lib, asar matnini tilshunoslik jihatidan atroflicha tahlil qilish eski o‘zbek adabiy tilining leksik boyligi, unda yuz bergan taraqqiyot qonuniyatlari borasida muayyan fikrga kelish, leksemalarning tarixiy-etimologik, semantik-stilistik xususiyatlari haqida

¹ Prezident Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasidan // Xalq so‘zi, 2017-yil 4-avgust.

² <https://qalampir.uz/news/boshk-alar-galabasini-miyamizga-singdirishgandi-mirziyeev-amir-temur-mudofaa-merosini-tadk-ik-k-ilishni-buyurdi-59945>

bahsga kirishish bilan birga, ajdodlar merosini targ'ib qilish, asar mazmunini teran anglab olish imkonini beradi. Ma'lumki, H.Dadaboyev Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma"ning Muhammad Ali Buxoriy tomonidan eski o'zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasini leksik fondi yuzasidan jahon tilshunosligida hozirga qadar maxsus tadqiqot bajarilmagani, manba leksikasining nihoyatda boy va rang-barang ekanligi xususida so'z yuritib, mazkur asar so'z boyligini o'rganish dolzarb ekanligini ta'kidlagan edi³. Haqiqatdan, "Zafarnoma" leksikasining mavzu guruhlari bo'yicha tasnifi va tavsifi amalga oshirilmagani, geneologik, semantik hamda funksional-stilistik kabi xususiyatlari monografik asosda maxsus tadqiqot obyekti bo'lmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, ayniqsa, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni va mazkur farmon bilan tasdiqlangan "2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi", 2017-yil 24-maydagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2995-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ham ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴. Eski o'zbek adabiy tiliga oid asarlar leksikasini o'rganish bo'yicha ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy o'quv yurtlarida, jumladan, University of Washington (AQSH), University of Amsterdam (Niderlandiya), University of London (Angliya), Marmara Universiteti, Mimar Sinan Güzel Sanatlar Üniversitesi, Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü, Türk Dili ve Edebiyatı Anabilim Dalı, Eski Türk Dili Bilim Dalı (Turkiya), Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti, Qozon davlat universiteti, Boshqird davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Qozoq milliy universiteti (Qozog'iston), Ozarbayjon Milliy Fanlar akademiyasi Tarix instituti (Ozarbayjon), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Urganch davlat universitetida (O'zbekiston) olib borilmoqda.

³ Дадабаев Х.А. Лексические особенности перевода на староузбекский язык «Зафар-наме» Шараф-ад-дина Али Йезди // Türkologiya. – Baki, 2015. – № 1. – С. 35-40.

⁴ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida amalga oshirildi: www.utexas.edu, www.berkeley.edu, www.northwestern.edu, www.bu.edu, www.ecu.edu.au, www.unice.fr/en, www.u-bordeaux.com, www.lang.ox.ac.uk, www.navoiy-uni.uz.

Jahon tilshunosligida Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarining eski o‘zbek adabiy tiliga tarjimasini leksikasini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: matnshunoslik nuqtayi nazaridan doktorlik dissertatsiyasi himoya qilingan, asarning turk alifbosida transliteratsiyasi amalga oshirilgan (Marmara universiteti, Turkiya); asarda qo‘llangan uzunlik o‘lchovi birliklari bo‘yicha tadqiqot e‘lon qilingan (Memor Sinon go‘zal san’atlar universiteti, Turkiya); “Zafarnoma” leksikasining semantik-stilistik, tarixiy-etimologik xususiyatlarining o‘ziga xosligi, manba leksik boyligini o‘rganishning ahamiyati asoslab berilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti).

Dunyo tilshunosligida “Zafarnoma”ning eski o‘zbek tiliga tarjimasini bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: muayyan davr tarixiy asarlari leksikasining farqli xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash; muallif shaxsi va uning asariga taalluqli masalalarni ijtimoiy omillar bilan bog‘liqlikda ochib berish; manbaning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish; asarning geneologik xususiyatlarini aniqlash, manbadagi tarixiy shaxslar va joy nomlarini aniqlash; asar matnini chet tillarga tarjima qilish; asarda qayd etilgan til birliklarini tasniflash va qiyosiy o‘rganish orqali o‘ziga xos leksik-semantik hamda funksional-stilistik xususiyatlarini belgilash.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligi hamda matnshunosligida Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarining eski o‘zbek adabiy tiliga tarjimalari bilan bog‘liq ilmiy izlanishlar olib borilgan⁵. O‘zbek tilshunosligida ham eski o‘zbek adabiy tilida yaratilgan asarlar leksikasini o‘rganish, badiiy, tarixiy asarlar matni, lug‘atlarda qo‘llangan til vositalarini tilshunoslikning turli yo‘nalishlari bo‘yicha har xil aspektlarda tadqiq qilish yuzasidan monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan⁶.

⁵ Ayşe K. Zafer-name-i Emir Temür, Muhammed Ali Bin Derviş Ali-yi Buhari. Doktora tezi. C.III. – Istanbul, 2014. – 1673 s.; Oral T. Zafer-nâme-i Emîr Timur (Tercüme-i Zafer nâme), Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enst. Basılmamış Doktora Tezi, 1991. – 2190 s.

⁶ Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 176 с.; Shu muallif. Общественно – политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1991. – 356 с.; Shu muallif. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент: 2017. – 136 б.; Каримов А. Алишер Навоий “Фарход ва Ширин” достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1973. – 160 б.; Насыров И. Лексика «Маджалис ан-нафаис» Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1980. – 20 с.; Хусанов Н.А. Лексикографическая характеристика словаря Шейха Сулеймана Бухари «Лугати чагатайи ва турки усмани»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1982; Shu muallif. XV аср ўзбек адабий ёдномаларидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 1998. – 66 б.; Хамидов З. Лексико-семантические и лингвопоэтические исследование языка “Лисан ут-тайр” Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1982; Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 20 с.; Shu muallif. Лексика произведений Алишера Навои: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1989; Умаров Э. “Бадаи-ал-лугат” и “Санглах” как лексикографический памятник и источники изучения староузбекского языка XV – XVIII в.в.: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Ташкент, 1989; Рустамов М. Гадоий девони тилининг лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1989; Ахматов Н. Муҳаммад Солиҳнинг “Шайбонийнома” асари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1991; Абдулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатлами: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997; Жумаев Т. “Умар Боқий” асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998; Рустамова С. Махмуд Кошғарий луғатининг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Махамдалиев Х. “Ғиёс-ул-луғат” ва ундаги туркий қатлам: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1998; Холмонова З.

Ma'lumki, XVI asrda eski o'zbek adabiy tilida yozilgan talay manbalar bizgacha yetib kelgan. Shulardan biri – Boburning “Boburnoma” memuar asari 1494–1529-yillarda yozilgan bo'lib, o'sha davr til xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Uning leksikasi maxsus tadqiq qilingan⁷. Muhammad Solihning 1506-yilda masnaviy shaklida bitilgan “Shayboniynoma” tarixiy dostoni leksikasi tahlilga tortilgan bo'lsa-da⁸, uning o'rganilish ko'lami “Boburnoma” yuzasidan qilingan ishlar darajasida salmoqli emas. XVI asr boshlari eski o'zbek adabiy tili manzarasini o'zida to'liq mujassam etgan nodir manbalardan biri Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub “Zafarnoma” asarining o'zbek tilidagi tarjimasidir. “Zafarnoma” hijriy 828-yili (melodiy 1424 – 1425) fors tilida yozilgan. Mazkur asarning Ko'chkinchixon buyrug'iga muvofiq Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan 1519-yilda, asar yozilganidan salkam yuz yildan keyin amalga oshirilgan o'zbekcha tarjimas,i muhim o'rin tutadi⁹. Tarjimada eski o'zbek adabiy tilining XV–XVI asrlardagi holati, uning boy leksik tarkibi, unda sodir bo'lgan turfa o'zgarishlar o'z ifodasini topgan. Asar so'z boyligini tahlil qilishni o'zbek tilshunosligida birinchi bo'lib boshlab bergan H.Dadaboyev ushbu obidani atroflicha tadqiq qilish dolzarb masala ekanligini ko'p bor urg'ulagan¹⁰. “Zafarnoma”ning kirill yozuvi asosidagi nashrini tayyorlagan olimlar mazkur manba tom ma'noda XVI asr boshlari o'zbek mumtoz nasrining buyuk obidalaridan sanalib, nafaqat yodgorlik tarjimas,i balki Sharafuddin Ali Yazdiy

“Шайбонийхон” дostonи лексикаси : Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998; Хусанов Н. XV аср ўзбек адабий ёдгорликларидagi антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000; Турдибеков М.Т. Абулғозий Баходирхоннинг “Шажарайи турк” асари ономастикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000; Зоҳидов Р. “Сабот ул-ожизин” асари лексикаси: Филол. фан. ном. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2001; Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007; Дадабоев Х., Ҳамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007; Ибрагимов А. Бобур асарлари лексикасининг лингвостатистик, семантик ва генетик тадқиқи (“Девон”, “Мубаййин”, “Аруз”): Филол. фан. д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2008; Холманова. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи. Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б. 52.; Исоқова З. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” асаридаги ижтимоий-сиёсий лексика: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2010. – 161 б.; Абдувалиева Д. Алишер Навоий тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 159 б.; Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2018. – 251 б.; Абдушукуров Б.Б. XI - XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фанлари номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 207 б.; Shu muallif. “Қисаси Рабғузий” лексикаси: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2017. – 259 б.; Shu muallif. XI-XIV асрларга оид ёзма манбалар тили: Монография. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 142 б.; Холмурадова М. “Қутадғу билиг” лексикаси: Филол. фан. б.фалс. док. ... дисс. – Тошкент, 2019. – 141 б.; Абдулхайров М. Навоий асарлари матни табилини амалга ошириш усуллари, тамойиллари ва амалий масалалари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 73 б.; Розикова Г. “Девону луғотит турк” асаридаги от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 74 б.; Синдоров Л. “Ҳибатул ҳақойик” лексикаси: Филол. фан.б. фалс. д-ри ... дисс. – Жиззах, 2021. – 282 б.; Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Фарғона, 2021; Хо'janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi: Filol. fan. b. fals. Dok ... diss. avtoref. – Toshkent, 2022. – 54 б.; Махаммадиев Х. Алишер Навоий “Хамса” дostonларидagi маиший лексика: Филол. фан. б. фалс. д-ри ... дисс. – Жиззах, 2022. – 165 б.

⁷ Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – 176 б.

⁸ Ахматов Н. Муҳаммад Солихнинг “Шайбонийнома” асари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 1991. – 24 б.

⁹ Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома (Сўз боши, табдил, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Аҳмад А., Бобобеков Х.) – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.

¹⁰ Дадабаев Х.А. Лексические особенности перевода на староузбекский язык «Зафар-наме» Шараф-ад-дина Али Йезди.// Türkologiya. – Bakı, 2015. № 1. – С. 35-40.

qalamiga mansub ayrim she'riy parchalarning tarjima jarayonida qayta ishlangani, erkin tarjima qilinganini ham ta'kidlashgan¹¹.

“Zafarnoma”ning eski o‘zbek adabiy tiliga tarjimasini Turkiyadagi ikki kutubxonada mavjud bo‘lib, ulardan biri To‘pqopi saroyi muzeyi kutubxonasida 281-inventar raqami ostida saqlanayotgan nusxa Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu nusxa negizida matnshunoslik ixtisosligi yo‘nalishida Tanju Seyhan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan¹².

“Zafarnoma” eski o‘zbek adabiy tiliga yana ikki marta tarjima qilingan bo‘lib, bularning birinchisi noma'lum tarjimom tomonidan Yaroqbiy qo‘ng‘iroq degan shaxsning buyrug‘iga ko‘ra, 1550-yili bajarilgan. 1826-yili Shermuhammad Munisning tavsiyasi bilan Xivada Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammad So‘fi Xevaqqiy tomonidan amalga oshirilgan nusxa esa obidaning qisqartirilgan shaklli so‘nggi o‘zbekcha tarjimasidir¹³.

Muhammad Ali Buxoriy tarjimasidagi “Zafarnoma” Istanbul shahridagi Nuri Usmoniya kutubxonasida 2796-inventar raqami (bundan oldin 3268-raqamda bo‘lgan) bilan saqlanadi. Bu yerga u turk sultoni Mustafo Uchinchi tomonidan hijriy 1171-(milodiy 1757)yilda vaqf qilingan. Qo‘lyozma hali atroflicha o‘rganilmagan. U haqda faqat venger sharqshunosi Y.Ekman 1964-yili qisqagina ma'lumot keltirgan¹⁴. M.Buzruk 1927-yili “Maorif va o‘qituvchi” jurnalida asar haqida xabar bergan¹⁵. J.Hayitov “Zafarnoma”ning Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasidagi o‘zbekcha tarjimasini haqida ma'lumot berishda ushbu qo‘lyozma haqidagi M.Buzrukning ma'lumotlariga tayanadi¹⁶. H.Dadaboyev “Zafarnoma”ning ushbu tarjimasini lingvistik tadqiqiga bag‘ishlangan maqolasida asar leksikasi nihoyatda boy va rang-barang ekanini misollar yordamida izohlab berdi¹⁷. Olimning boshqa bir tadqiqotida “Zafarnoma” asarining o‘zbekcha tarjimasini nashridagi ba’zi so‘zlar transliteratsiyasi xususida so‘z yuritiladi. Unda eski o‘zbek yozuvidagi qo‘lyozmani kirill yozuviga tabdil qilishda matnshunoslarning yutuqlari va ular tomonidan yo‘l qo‘yilgan ba’zi qusurlar haqida so‘z yuritilgan¹⁸. H.Dadaboyev “Zafarnoma”dagi qo‘shma fe‘llar va ko‘makchi fe‘lli so‘z qo‘shilmalarining boy lisoniy imkoniyatlarini tart= tarkibli fe‘llar misolida ko‘rsatib berdi¹⁹.

“Zafarnoma”ni kirill yozuviga tabdil qilgan A.Ahmad va H.Bobobekovlar asar tilining hozirgi o‘zbek lahjalariga munosabati, uning bayon uslubi va mazkur

¹¹ Шарафуддин Али Яздий. Ко‘rsatilgan manba. – Б. 4.

¹² Oral T. Zafer-nâme-i Emîr Timur (Tercüme-i Zafer nâme), Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enst. Basılmamış Doktora Tezi, 1991.

¹³ Аҳмад А., Бобобеков Б. Сўз боши // Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.4.

¹⁴ Eckmann J. Die Tschagataische Literatur. Pilologia turcicae fundamenta. T.II.-Leiden, 1964. – P. 366.

¹⁵ Миён Б. Ўзбек тарихига оид тўрт муҳим китоб // Маориф ва ўқитувчи. –1927. – № 9 – 10. – Б. 56-60.

¹⁶ Ҳайитов Ж. – “Зафарнома” асарининг Истанбул шаҳри Усмония кутубхонасидаги ўзбекча таржима нусхаси хусусида // “Тарихий хотира – маънавият асоси” мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. – Бухоро: “Бухоро”, 2013. – Б. 173

¹⁷ Дадабаев Х. Лексические особенности перевода на староузбекский язык «Зафар-наме» Шараф-ад-дина Али Йезди.// Türkologiya. – Bakı, 2015. № 1. – С. 35-40.

¹⁸ Дадабаев Х. Шарафуддин Али Яздий “Зафарнома” асарининг ўзбекча таржимаси нашридаги баъзи сўзлар транслитерацияси хусусида.// “Темурийлар даврида илм-фан ва маданият” мавзуидаги халқаро илмий конференция тезислари. – Тошкент, 2017 йил, 13-14 сентябрь. – Б. 40-42.

¹⁹ Дадабаев Х. “Зафарнома” асарининг эски ўзбекча таржимасида қўлланган **тарт**= таркибли қўшма феъл-лексемалар семантикаси хусусида // Ilm sarchashmalari. – Urganch, 2019. – В. 61-65.

asar tilini o'rganish muhimligi xususidagi fikrlarini bildirganlar: "Muhammad Ali Buxoriyning tili eski o'zbek tilining ajoyib bir namunasidir. Uni biror-bir hozirgi lahja bilan butunlay bog'lab bo'lmaydi. Bir tarafdin bu til biz ko'nikkanimiz Zahiriddin Muhammad Boburning tiliga o'xshasa, ikkinchi tarafdin shimoliy Buxoro bilan Xorazmning sharqi va Sirdaryo bo'ylaridagi tilni eslatadi. Umuman olganda, bu til qarluq, qipchoq va o'g'uz elementlarini o'z ichiga olgan bo'lsa ham, qarluq elementi unda ustun keladi. Va shu jihatdan haqli ravishda uni o'zbek tili deymiz"²⁰. Nashrga tayyorlovchilar asar tili XIV–XVI asrlarda nafaqat Movarounnahr, balki Volganing quyi oqimidagi Saritsin (hozirgi Volgograd)dan to Sind daryosi havzasigacha oraliqda tarqalgan degan fikrni boshqa bir manbadan²¹ iqtibos keltirgan holda ta'kidlaydilar²². Asar tilining o'ziga xosligi va uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish muhimligi haqida nashrga tayyorlovchilarning: "Muhammad Ali Buxoriyning bayon uslubi shu qadar maftunkorki, biz bu usulni saqlash uchun asarning tilini hozirgi adabiy tilga ko'chirmay o'zicha qoldirishga qaror qildik. Chunki bu asar XVI asr birinchi choragidagi o'zbek prozasining yirik va jonli namunasidir. Shu bilan birga, bu asar tili hozirgi zamon tilshunoslarida ham qiziqish uyg'otar, degan niyatdamiz", – kabi fikrlari juda ahamiyatli²³.

B.A.Ahmedov, R.G.Muqminovalar maqolasida Sharafuddin Ali Yazdiyning fors tilida yozilgan "Zafarnoma" asari²⁴ leksikasida uchraydigan yuzga yaqin turkcha- mo'g'ulcha mushtarak istilohlar tahlil qilingan²⁵.

Umuman, "Zafarnoma" leksikasini o'rganish bo'yicha bajarilgan ishlar mazkur manbani leksikologik jihatlan tahlil qilish borasidagi dastlabki kuzatishlar samarasi hisoblanadi. Mavzuning dolzarbligidan kelib chiqqan holda, asar leksik boyligini muayyan tizim asosida tadqiq etib, obidaning eski o'zbek adabiy tili shakllanishi va rivojlanishida tutgan o'rnini belgilash masalasini ijobiy hal qilish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Sharafuddin Ali Yazdiy qalamiga mansub "Zafarnoma" asarining Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan eski o'zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasini mavzu guruhlari bo'yicha tasnif va tavsif qilish, leksik birliklarning geneologik, semantik, funksional-stilistik xususiyatlarini tahlil qilish orqali manba lug'at boyligining o'ziga xosligini ochiqlashdan iborat.

²⁰ Шарафуддин Али Яздий. Ко'rsatilgan manba – Б. 7.

²¹ Хождение за три моря Афанасий Никитина. – М. – Л., 1948. – С. 203.

²² Ахмад А., Бобобеков Х. Сўз боши // Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. – Тошкент: Шарк, 1997. – Б. 7.

²³ Ахмад А., Бобобеков Х. Ко'rsatilgan manba. – Б. 7.

²⁴ Шараф-ад-дин Али Йезди. Зафар-наме (Подготовка к печати, предисл., примеч. и указ. А.Урунбаева). – Ташкент, 1972.

²⁵ Ахмедов Б.А., Мукминова Р.Г. Тюрко-монгольские заимствования персоязычных хроник XV–XVII вв. // Советская тюркология.-Баку, 1987. – № 6.– С. 37-45.

Tadqiqotning vazifalari:

asar leksikasini mavzu guruhlarini bo'yicha tasniflash va tavsiflash;
lug'aviy qatlamlarni tadqiq etish, ularni o'zbek tili tarixiy leksikasi tizimi bilan qiyoslash;

asar leksik tizimiga mansub lug'aviy birliklarning geneologik hamda semantik tahlilini asosan diaxron, zarur o'rinlarda sinxron aspektlarda amalga oshirish;

muayyan leksemalarning shakliy-ma'noviy tarkibida ro'y bergan o'zgarishlar, qo'llanish doirasini hozirgi o'zbek adabiy tili va shevalari nuqtayi nazaridan qiyosan o'rganish va tahlil etish;

asar leksikasining eski o'zbek adabiy tili so'z boyligi rivojlanishidagi o'rnini belgilash.

Tadqiqotning obykti sifatida Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarining Muhammad Ali ibn Darvesh Ali al-Buxoriy tomonidan 1519-yilda eski o'zbek adabiy tiliga o'girilgan, hozir Istanbuldagi Nuri Usmoniya kutubxonasida saqlanayotgan nushasi tanlangan²⁶.

Tadqiqotning predmetini "Zafarnoma" leksikasining semantik, geneologik va funksional-stilistik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tadqiq qilinayotgan materialning xarakteridan kelib chiqqan holda, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, qiyosiy-tarixiy hamda statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eski o'zbek adabiy tilining XVI asrdagi fonetik, leksik, grammatik holatlari, shuningdek, lug'aviy birliklarining tarixiy va semantik taraqqiyotini aniqlashda "Zafarnoma" asarining eski o'zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasidagi lug'at tarkibning turfaligi ijtimoiy-siyosiy, harbiy, maishiy va diniy leksikaga oid mavzu guruhlarini asosida baholanib, so'z boylikda sodir bo'lgan ma'no kengayishi, ma'no torayishi singari semantik jarayonlar asoslangan;

"Zafarnoma" tarjimasidagi *naft, ra'dandáz, ma'raka, ilyar, ilgäri, tabaq, dasturxán, kafš, pir, háfiz, jibä, berkit=, sal=, mubárakbád* kabi leksik birliklarning leksikografik manbalarda ifodalanmagan fonetik, lug'aviy, grammatik voqelanishiga doir tarixiy-etimologik xususiyatlari, semantik taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan ma'no qirralari kelgusida yaratiladigan lug'atlarda aks etishi zarurligi semasiologiya nuqtayi nazaridan isbotlangan;

"Zafarnoma" tarjimasini tilining xarakterli jihatlari, xususan, uning qadimgi turkiy til hamda eski turkiy til bilan uzviy bog'liqligi *yazı, çöl, ölkä, qışlaq, balçiq, tuy, oq, uruš, qilič, orta, uluy, oyrıuq, yurtçı, başlamiš, tirkaš, yurt, zuhd, butxána, xánaqáh, átaškada, iydgáh, masjid, šayxulislám, majus, gabr, kalisa, tabar* kabi so'z va istilohlar asosida dalillangan;

²⁶ Tayanch manba sifatida quyidagilardan foydalanildi: Muhammad Ali tarjimasidagi "Zafarnoma" asarining Turkiyaning Istanbul shahridagi Nuri Usmoniya kutubxonasida 2796-inventar raqam (avval 3268-raqamda bo'lgan) bilan saqlanadigan yagona qo'lyozmasi nusxasi va bu asarning kirill yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga transliteratsiya qilingan nashri: Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Аҳмад А., Бобобеков Х. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.; Шарафуддин Али Йаздий. Зафарнома. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари ва нашрга тайёрловчилар: Аҳмад А., Бобобеков Х. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2023. – 576 б.

asar leksikasidan o‘rin olgan so‘z boylik o‘sha davrda yaratilgan boshqa yozma manbalar, ayrim o‘rinlarda, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida aynan yoki ma’no kengayishi yoxud ma’no torayishi asosida aks etgani *xum, ma’raka, sanač, fota, kafš, dasturxán, balta, tasadduq, tart=, sal=, qopar=* kabi birliklar misolida asoslangan;

manba tarjimasida lug‘at fondida qo‘llangan *čapqun qıl=, jer bılän tej qıl=; uruš=, uruš sal=; jetiš=, kel=; ur=, tıq=; jazuq, gunáh; a’dá, dušman; ajš, išrat, tana’um; adl, dád; sačqı, ináyat; azimat, šavkat; peškaš, tuhfa, savrın, bōlāk* kabi sinonimik uyalar; *salámatlik – xastalıq, qıšlıq – yazlıq, šádmánlik – gam, nek – bad, jur= – qarár tap=, köč= – tuš* kabi antonimik qatorlar; *bōlāk, bay, sal, ajaq, keč, til, burun, pára* singari omonimlarning tahlili asosida asar so‘z boyligining leksik-semantik xususiyatlari, shuningdek, o‘xshatish, metafora, evfemizm, takror kabi tasviriy vositalarning qo‘llanishiga xos funksional-stilistik xususiyatlar ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tilning tarixiy va hozirgi holatini aniq baholash, shuningdek, yosh avlodning ajdodlar ma’naviy merosini o‘rganish hamda undan bahramand bo‘lishiga ulush qo‘shishi asoslangan;

XVI asr boshlarida Markaziy Osiyodagi til vaziyati, xususan, eski o‘zbek adabiy tilining shakllanish hamda rivojlanish xususiyatlari aniqlangan;

tadqiqot materiali va xulosalari o‘zbek tili tarixi uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumot berishi, uning nazariy asoslarini boyitishi amaliy jihatdan dalillangan;

“O‘zbek tili tarixi” fani bo‘yicha yaratiladigan darslik va qo‘llanmalar, o‘quv hamda izohli lug‘atlarning yanada mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan;

tadqiqot natijalari filologiya yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislarning bilim va malakasini oshirish imkoniyatini kengaytirgan;

“Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asari leksikasi” monografiyasi nashr qilingan;

“Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qo‘llangan so‘zlar indeksi” nashr qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlilga tortilgan materiallar o‘zbek tilining tabiati, uning turli taraqqiyot bosqichlaridagi holatidan kelib chiqqan holda o‘rganilgani, ashyoviy misollarning aniqligi, foydalanilgan manbalarning, chiqarilgan xulosalarning qat’iyligi, muammoning aniq qo‘yilganligi, lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, nazariy ma’lumotlarda birlamchi ilmiy manbalarga tayanilgani, tahlilga tortilgan materiallarning asoslilik, metodologik jihatdan mukammalligi, tavsiflash, tasniflash, funksional-semantik, qiyosiy-tarixiy hamda statistik tahlil usullaridan samarali foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati “Zafarnoma”da aks etgan til birliklarining o‘ziga xosliklari tahlil etilishi, asarda qo‘llangan leksemalarda sodir bo‘lgan turli semantik, geneologik va funksional-stilistik xususiyatlar haqidagi ilmiy xulosalarning ilgari surilgani, eski

o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotida mazkur manbaning roli ko‘rsatib berilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “Zafarnoma”ning eski o‘zbek adabiy tiliga tarjimasini so‘z boyligi, ushbu manbaning XVI asr eski o‘zbek adabiy tilining holatini ko‘rsatib berishdagi o‘rnini belgilovchi materiallar “O‘zbek tili tarixi”, “O‘zbek terminologiyasi” fanlaridan darslik, o‘quv qo‘llanma va lug‘atlar yaratish, tanlov fanlarini o‘tish, umumta’lim maktablari va o‘rta-maxsus ta’lim tizimidagi ona tili, adabiyot, tarix darslarida qo‘shimcha material sifatida foydalanish, ommaviy axborot vositalarida eski o‘zbek adabiy tili takomilida asar leksikasining rolini targ‘ib etishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Zafarnoma” leksikasini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

eski o‘zbek adabiy tilining XVI asrdagi fonetik, leksik, grammatik holatlari, shuningdek, lug‘aviy birliklarning tarixiy va semantik taraqqiyotini aniqlashda “Zafarnoma” asarining eski o‘zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasidagi lug‘at tarkibiga xos birliklarning muhim o‘rni ijtimoiy-siyosiy, harbiy, maishiy va diniy leksikaga oid mavzu guruhlari asosida baholanib, ulardagi ma’no kengayishi, ma’no torayishi singari semantik jarayonlar asoslangani bilan bog‘liq xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G002-raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2021-yil 10-noyabrdagi 339/1-son ma’lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tilidagi ayrim leksemalarning leksik, semantik va geneologik xususiyatlari ochib berilgan;

“Zafarnoma” tarjimasidagi *naft, ra’dandáz, ma’raka, ilyar, ilgäri, tabaq, dasturxán, kafš, pir, háfiz, jībä, berkit=, sal=, mubárakbád* kabi leksik birliklarning leksikografik manbalarda ifodalanmagan fonetik, lug‘aviy, grammatik va hosil bo‘lishiga doir tarixiy-etimologik xususiyatlari, ularning semantik taraqqiyoti asosida yuzaga kelgan ma’no qirralari kelgusida yaratiladigan lug‘atlarda aks etishi zarurligi tilshunoslik nuqtayi nazaridan isbotlanganga oid yangiliklardan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 26-yanvardagi 35/1-son ma’lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tilidagi ayrim leksemalarning lug‘aviy-ma’noviy va etimologik xususiyatlarini ochib berishga erishilgan;

“Zafarnoma” asari tarjimasini tilining xarakterli jihatlari, xususan, uning qadimgi turkiy til hamda eski turkiy til bilan uzviy bog‘liqligi *yazı, čöl, ölkä, qışlaq, balčiq, tuy, oq, uruš, qilič, orta, uluy, oyruq, yurtči, başlamış, tirkaš, yurt, zuhd, butxána, xánaqáh, átaškada, iydgáh, masjid, šayxulislám, majus, gabr, kalisa, tabar* kabi so‘z hamda istilohlar misolida dalillangani, asar leksikasidan

o‘rin olgan birliklar o‘sha davrda yaratilgan boshqa yozma manbalar, zarar o‘rinlarda, hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalarida aynan yoki ma’no kengayishi yoxud ma’no torayishi asosida aks etgani *xum, ma’raka, sanač, fota, kafš, dasturxán, balta, tasadduq, tart=, sal=, qopar=, bas=* kabi ashyoviy misollar yordamida asoslangani bilan bog‘liq xulosalardan Xorazm Ma’mun akademiyasida 2017-yilda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-martdagi 49-bayoni yuzasidan xo‘jalik shartnomasi asosida amalga oshirilgan “Ogahiy tomonidan fors tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan “Axloqi muhsiniy” asarini tabdil qilish, nashrga tayyorlash va chop etish” mavzusidagi loyihada keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma’mun akademiyasining 2022-yil 10-martdagi 54/1-22-son ma’lumotnomasi). Natijada dissertatsiya materiallari “Axloqi muhsiniy”ga ilova qilingan lug‘atni tuzish, asar matnida uchraydigan so‘zlarni to‘g‘ri tabdil qilish, izohlashda amaliy yordam vazifasini o‘tagan;

“Zafarnoma” tarjimasini lug‘at fondida qo‘llangan *čapqun qil=, jer bilán tej qil=; uruš=, uruš sal=; jetiš=, kel=; ur=, tìq=; jazuq, gunáh; a’dá, dušman; ajš, išrat, tana’um; adl, dáđ; sačqì, ináyat; azimat, šavkat; peškaš, tuhfa, savrìn, bōlāk* kabi sinonimik uyalar; *salámatlik – xastalìq, qìšlìq – yazlìq, šádmánlik – gam, nek – bad, kōč= – tuš=* kabi antonimlar; *bōlāk, bay, sal, ajaq, keč, til, burun, pára* singari omonimlarning tahlili asosida asar so‘z boyligining leksik-semantik xususiyatlari, shuningdek, o‘xshatish, metafora, evfemizm, takror kabi tasviriy vositalarning qo‘llanish doirasiga xos funksional-stilistik xususiyatlar ochib berilganiga oid xulosalardan Xorazm teleradiokompaniyasining “Munavvar kun”, “Xorazmnoma”, “Tilimizni o‘rganamiz”, “Siz nima deysiz?” ko‘rsatuvlarida “Zafarnoma” asarida qo‘llangan so‘zlarning ma’nolari bilan bog‘liq xulosalardan foydalanilgan (Xorazm teleradiokompaniyasining 2023-yilning 5-dekabridagi 803-son, 2023-yilning 5-dekabridagi 804-son, 2023-yilning 5-dekabridagi 805-son ma’lumotnomalari). Natijada adabiy-badiiy, ma’naviy-ma’rifiy dasturlarda o‘zbek tilining nufuzi, rivojlanish jarayonlari, “Zafarnoma” leksikasidan olingan misollar orqali eski o‘zbek tilining ichki xususiyatlarini keng ommaga yetkazish bilan tadqiqot manbasining lisoniy jihatdan ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta xalqaro va 12 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 42 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta monografiya, 1 ta indeks lug‘at va O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 16 ta maqola, jumladan, 13 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 208 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi yoritilgan, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarining amaliyotga joriy qilingani, aprotatsiyasi, e'lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumot keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zafarnoma” leksikasining mavzu guruhlari bo'yicha tadqiqi**” deb nomlangan dastlabki bobi besh paragrafni o'z ichiga qamrab olgan. Mazkur bob tadqiq qilinayotgan asar leksikasining mavzu guruhlari bo'yicha umumiy tavsifi, mavzu guruhlari kiruvchi leksemalar kabi masalalarni yoritishga bag'ishlangan.

Bobning **1.1.** paragrafi **“Asar leksikasining mavzu guruhlari bo'yicha umumiy tavsifi”** shaklida nomlangan bo'lib, asar leksikasi 54 mavzu guruhiga ajratilgan, bu mavzu guruhlarning ayrimlari o'z ichida guruhchalarga bo'lingan holda tasnif qilingan va dalillovchi faktik misollar bilan mustahkamlangan. Ushbu paragraf “Zafarnoma”ning leksik manzarasi haqida ma'lumot berishga yo'naltirilgan.

Bobning **1.2.** paragrafi **“Ijtimoiy-siyosiy leksika”** tarzida atalgan. Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarining XVI asr boshida fors-tojik tilidan eski o'zbek adabiy tiliga qilingan tarjimasida obidaning mazmun-mohiyati bilan turkiyzabon xalqni yaqindan tanishtirish qatori, eski o'zbek adabiy tili leksikasining o'ta boyligi hamda turfaligini namoyish etishga salmoqli ulush qo'shgan.

“Zafarnoma” so'z boyligi o'ta rang-barang bo'lib, davr hayotining deyarli barcha qirralarini qamrab olgan. Asar Amir Temur faoliyati va harbiy yurishlariga bag'ishlangani bois unda XIV – XVI asrlar ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ayniqsa, harbiy, shuningdek, diniy, maishiy singari sohalarga doir ma'nolarni ifodalovchi so'z va istilohlarning mavjud bo'lishi tabiiy hol.

Izlanish asar leksikasining salmoqli ulushini ijtimoiy-siyosiy istilohlar tashkil etishini ko'rsatdi. “Zafarnoma” tarjimasida qo'llangan so'z boyligini mavzu guruhlari bo'yicha tahlil qilishga dissertatsiya hajmining cheklanganligi izn bermasligini hisobga olib, mansab va martabani anglatuvchi istilohlar, diplomatiya terminlari, ma'muriy-hududiy birlik ifodalovchi terminlar, siyosiy boshqaruv va jarayon tushunchasini ifodalovchi istilohlar, sud-huquq tizimi bilan bog'liq birliklar, jamiyatdagi sotsial guruhlarni ifodalovchi so'zlar, iqtisodiy, savdo-moliya terminlari, in'om-ehson tushunchasini anglatuvchi so'zlar kabi mavzu guruhlari xususida to'xtalish ma'qul topildi.

Asar tilida *xan* istilohi faol ishlatilgan. “O'zbek adabiy tili leksikasi tarixi” monografiyasida XIV–XIV asr manbalarida *qayan* termini *xaqan* خاقان tarzida uchrasa ham, uning *šáh* va *sultán* o'zlashmalariga nisbatan kam ishlatilgani

aytilagan²⁷. *Xaqan* termining qadimgi turkiy tildagi *qayan* varianti “Zafarnoma” tarjimasida ishlatilmagan. Faqat uning eski turkiy tildagi *xaqan* shakli asarning ikki o‘rnida (bir o‘rinda *xan* so‘zining ma‘nodoshi sifatida, bir o‘rinda toponim sifatida) uchraydi. *Xan*, *xaqan* terminlariga sinonim sifatida fors-tojikcha *pádšá*, *šáh*, *šahanšáh*, *šahrijár* va arab tilidan olingan *sultán* *خون* zlashmasi faol ishlatilgan. Asarda *xan* istilohi Chingiziylarga nisbatan ishlatilgan: *Husaynbekniñ oylı Jahánmalik anña qoşuldı, va özi xan bilä Kaşmda olturđı*. (50 a) Ayrim manbalardagi *xan* termini *qayan* leksemasining qisqargan varianti ekanligi haqidagi qarashlarga qo‘shilsa bo‘ladi²⁸. L.Budagov *xan* so‘zini mo‘g‘ulcha *qaan* so‘zining qisqargan varianti desa²⁹, ba‘zi olimlar *qayan* istilohini xitoycha *ke* – “buyuk, ulug‘”; *kuan* – “hukmdor” so‘zidan olingani to‘g‘risidagi fikrlarni ham bildirishgan³⁰. Bizningcha, *xan* so‘zi turkiy qatlamga mansub. Bu o‘rinda tilshunoslikda xitoy-mo‘g‘ul, turk-mo‘g‘ul leksik parallelliklari masalasi ancha munozarali va to‘liq o‘rganilmaganini ham ta’kidlash joiz.

“Zafarnoma”da diplomatik faoliyatni ifodalovchi *elçı*, *elçilik*, *fathnáma*, *inájatnáma*, *istimálatnáma*, *nasihatnáma*, *ahdnáma*, *maktub*, *ižázat* kabi istilohlar faol iste’molda bo‘lgan: *Nasihatnámakim, Yildirim Bayazidqa láyiq bolıyay, inšá qılsun!*(233 b); *Barčañız bu jihatdin ahdnámalar bitib yıbariñkim, ahdnámalarıñız Samarqandqa bizgä kelgäy ta barča ahdnámalarñı šahzádayi valiyahd Pir Muhammadqa yıbargäybız*”. (310 a)

1.3. paragrafda harbiy leksika jang, jang maydoni, harbiy belgi, harakat-holat, jangovar tartib va h.k. ma‘nolarni bildiruvchi terminlar, harbiy sohada faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs tushunchasini ifodalovchi nomlar, qo‘shin turlari, harbiy qism, bo‘linmalarni ifodalovchi istilohlar kabi mavzu guruhlariga ajratilgan holda batafsil sharhlandi.

“Zafarnoma”da qurol-yarog‘ tushunchasini ifodalovchi terminlar soni juda ko‘p bo‘lib, bu jihat o‘sha davrda jang olib borish uchun zarur aslaha turlarining juda takomillashganidan dalolat beradi. Masalan, *Naft va ra’dandázlar har sarıdın işlarıya maşyul boldılar* (239 b) gapidagi *naftandáz* نفت انداز va *ra’dandáz* رعدانداز terminlariga diqqat qaratamiz. Aslida *ra’d* so‘zining lug‘aviy ma‘nosi arabcha “momaqaldiraq, chaqmoq”ni anglatadi. *Ra’d* so‘ziga “otish, uloqtirish” ma‘nosidagi forscha-tojikcha *andáz* so‘zini qo‘shish bilan *ra’dandáz* termini hosil qilingan. Demak, bu yerda momaqaldiraqdek gumburlab portlovchi va chaqmoqdek olovli chaqnovchi qurol haqida so‘z ketadi³¹. Bunday hodisa faqat porox portlaganda yuz bergan: *Alqıssa, ikki tarafđın uruş erđı. Va bir-birigä oq va taxş va ra’dandáz urar erđilärkim, yamyurdek*. (273 a) Xitoyliklar va ulardan o‘rgangan mo‘g‘ullar porox bilan XIII asrdan tanish edilar. Turkiy xalqlar oltingugurtli chaqmoq toshlarni qadimda kashf etishgan. *Naftandáz* – “neft otuvchi

²⁷ Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи.– Тошкент: Фан, 2007.– Б. 100.

²⁸ Бартольд В.В. Сочинения. Т. II. Ч. I. – М., 1963. – С. 604.

²⁹ Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Т. I. – С-Пб., 1869. – С. 527.

³⁰ Дадабоев Х., Хамидов З., Холмонова З. Ko‘rsatilgan monografiya. – Б. 34; Баскаков А.Н. Тюркизмы – социальная терминология в “Слове о полку Игореве”. // *Turkologica*. К 70 летию акад. А.Н.Кононова. – М., 1976. – С. 225.

³¹ *Ra’d to‘pi* haqida batafsil ma‘lumot olish uchun qarang: Дадабоев Х. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Тошкент: Ёзувчи, 1996. – Б. 20-21.

qurol”. Demak, o’sha davrlarda to’plar va boshqa o’t ochish qurollari keng qo’llanilgan: ...*Oq va nayza bilän dimär čiqardilar. Va ba’zi yerlärdäkim, oq va nayza tegmäs erdi, ot va naft bilän ul badbaxtlarni küydürür erdilär* (331 a). Asarda *naftandáz* va *ra’dandáz* qurollarini ishlatuvchi harbiylarga nisbatan yarim kalka, ya’ni *ra’d atquči*, *naft atquči* birikmalari ham qo’llangan. Yarim kalkalar tilmochning ona tili imkoniyatlaridan mohirlik bilan foydalanish iste’dodidan dalolat beradi. Muhammad Ali Buxoriy ishlatgan har ikkala istiloh Navoiy va Bobur asarlarida uchramaydi.

Asarda qo’llangan harbiy leksikani uning ko’lami va ma’no xususiyatlari nuqtayi nazaridan, shuningdek, eski o’zbek tilining harbiy leksikasini mavzu guruhlari yoki semantik maydon jihatdan tasnif qilgan tadqiqotchilar ishlari bilan tanishgan holda, muhoraba, jang maydoni, harbiy belgi, jangovar harakat va amaliyotlar, harbiy sohada faoliyat ko’rsatuvchi shaxslar; qo’shin turlari, harbiy qism, bo’linmalar; harbiy taktika va strategiya; harbiy harakatlar chog’ida ishlatiladigan qurol-aslahalar; mudofaa inshootlari nomini bildiruvchi istilohlar kabi ichki mavzu guruhlari ajratib tahlil qilindi.

Z.Xolmonova tadqiqotida Saljuqiylar davrida *yabyu* يابغو va *šad* شد istilohlari “qo’shinning o’ng va so’l qanoti qo’mondoni” ma’nosida iste’molda bo’lgani haqida qiziqarli daliliy ma’lumotlar bor. “Boburnoma”da har ikki qism jang maydonida joylashish xarakteriga ko’ra, *buranyar* برانغار va *žavanyar* جوانغار deb yuritilgan³². “Zafarnoma”ning o’zbekcha tarjimasida *buranyar* va *žavanyar* terminlari faqat ikki martadan qo’llangan, boshqa o’rinlarda asosan *oň qol* va *sol qol* istilohlari ishlatilgan: *Va yana bir yasal amir Hájji Sayfuddin čeriki bilä žavanyarda turdi. Va bir yasal buranyarda šahzáda Umaršayxni qilib, Berdibek Sari Buya va Xudáydádi Husayniyni mubárizlar bilä turyuzdi. Va oň qol va sol qol bekläri va tümän bekläri va qošun bekläri, har birini öz yeridä turyuzub, yasallar tüzdilär* (125 a); *Oň qol va sol qolnuň čeriki Ankuriyaya mutavajjih bolsunlar. Va Qaysariyaya barib orduya qošulyaylar!*” (274 b)

Buranyar va **žavanyar** oralig’ida hujum uyushtiruvchi, jang olib boruvchi asosiy qism *gol* غول deb nomlangan bo’lib, lashkar safining orqarog’ida turgan: *Sáhibqirán alarni körüb, gol sari čapib zabtiya mašyul boldi* (88 a).

Tadqiqotda “Zafarnoma” tarjimasida qo’llangan *nafir*, *naqqára*, *kavs*, *buryu*, *kös*, *čindavul*, *davul*, *tabl*, *žaras*, *küräkä*, *karnaj*, *naji rumij*, *naji ebän*, *surnaj* kabi harbiy cholg’u asboblari nomini ifodalovchi leksemalar ham tahlilga tortildi.

Bobning 1.4. paragrafi “**Maishiy leksika**” deb nomlanib, unda ayni mavzu guruhga oid so’zlar bir qancha kichik guruhlarga ajratilib tahlilga tortildi.

“Zafarnoma”ning tarjimasida XVI asr boshlari o’zbek adabiy tili holatini o’zida to’liq mujassam etgan muhim manbalardan biridir. Mazkur asar leksikasi tadqiqi o’sha davr til xususiyatlari haqida qimmatli ma’lumotlar berishi bilan birga, unda qo’llangan so’zlarni hozirgi o’zbek adabiy tili va shevalariga qiyoslash orqali ularning ma’no taraqqiyoti, semantik-uslubiy xususiyatlari haqida muayyan to’xtamga kelish mumkin.

³² Холмонова З. “Бобурнома” лексикаси. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 101.

“Zafarnoma” tarjimasida oshxona, mehmonxona va yotoqxonaga oid maishiy leksika o‘ziga xos o‘rin tutadi. So‘zlar tahlili misolida maishiy leksika haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Közä كوزه odatda suyuqliklarni saqlash uchun ishlatiladigan qorni keng, bo‘g‘zi ingichka dastali idish nomi bo‘lib, *xum* so‘zi kabi “teshik, o‘yiq” ma’nosini ifodalash uchun qo‘llangan bo‘lishi mumkin. O‘zbek tilidagi *buloqning ko‘zi*, *derazaning ko‘zi* kabi birikmalardagi *ko‘z* so‘zining metaforik qo‘llanishi ham shunday taxminga asos bo‘la oladi. Xuddi *qumg‘onning og‘zi*, *o‘choqning og‘zi* kabi.

Manbadagi kiyim-kechak va bezak buyumlarini ifodalovchi so‘zlarning tahlili orqali o‘zbek xalqi milliy kiyimlari o‘sha davrda ham dunyoga mashhur bo‘lgani, ularning nomlarini o‘rganish esa asar bitilgan davr tilining xususiyatlarini ochib berishga xizmat qilishini anglash mumkin. Asardagi kiyim-kechak va bezak buyumlari nomlari *kiyim*, *ustki kiyim*, *ichki kiyim*, *bosh* va *oyoq kiyimlar*, kiyimlarga yordamchi buyumlarni ifodalovchi leksemalar kabi mavzu guruhlariga bo‘lib o‘rganildi.

“Zafarnoma” leksikasidagi kiyim-kechak nomlarini ifodalovchi so‘zlar ajdodlarning turfa kiyim-kechak turlariga egaligi jihatidan dunyoda yetakchi o‘rinlarda turishini anglatadi. Bu davrda kiyim-kechak nomlari, asosan, o‘z qatlamga oid so‘zlar bilan ifodalangan, ayni paytda ular bilan yonma-yon arabcha, forscha-tojikcha, ba‘zan mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar ham qo‘llanib, sinonimlar qatorining voqelanishiga bois bo‘lgan.

Fota فوطه (181 b) so‘zi hozirgi o‘zbek tilida “matodan qilingan belbog‘”, “belga bir necha marta aylantirib o‘raladigan uzun belbog‘” ma’nosida qo‘llanishi izohlangan³³, fors-tojik tilida bu leksema “belbog‘ sifatida ishlatiladigan mato”, “dastorcha”, “ro‘mol”, “hammomda lungi vazifasini bajaruvchi mato” ma’nolarini anglatadi³⁴. Xorazm shevalarida ushbu so‘z *pota* shaklida qo‘llanib, “ayollarning boshga o‘ralib, uchlari belga aylantirib bog‘lanadigan katta qalin ro‘moli” ma’nosini bildiradi. Xorazmda, asosan, keksa yoshdagi ayollar *pota* o‘raydi.

XV-XVI asr miniatyuralarida erkaklar ishlatadigan buyum sobong‘ich, ya’ni *fota* tasvirlangan. U bo‘ksaga aylana o‘ralib, ingichka belbog‘ yordamida mahkamlangan. ...Ba‘zan *fotani* belbog‘ sifatida ham ishlatishgan³⁵.

Sof o‘zbekcha **isiryä** leksemasi “Sollanish, tebranish, egilish” ma’nosida qayd qilingan *sergäk* (*esruk sergälädi* – mast gandrakladi) bilan birlasha oladi. Eski turkiy tildagi *sergälä*= fe’li o‘zbek tilida *selkillä*= “chayqalmoq, tebranmoq, qimirlamoq, silkinmoq” ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llanadi³⁶: *Ul jumladin ikki isiryäkim, mahdi ulyä Oljay Türkänniñ erdi, Husaynbekkä yibardi.* (30 b)

Dissertatsiyada *nigin* نغین (160 a); *žaváhir* // *žavhar* جواهر. (246 b), *gavhar* // *guhar* جواهر: (62 a), *buqtaq* برتاق: (116 b), *murassa* مدرسه. (299 a), *la’l* لعل (251 a), *yaqut* (248 b), *inžu* اینجو (55 b), *dur* در (74 a), *áltun* آلتون (284 b), *kümüš* كوموش //

³³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдли. IV жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б. 369.

³⁴ Фарҳанги забони тоҷикӣ. Дар ду жилд. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – Ҷилди 2. – С. 449.

³⁵ Ҳасанбоева Г.К., Чурсина В.А. Костюм тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 270-271.

³⁶ Усманова Ш. Олтой тилларида муштарак маиший лексика. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 167.

kūmāš كماش (171 b), *nuqra* نقرة (246 b), *žahiz* جهيز (152 b), *hamajil* : حمائل (159 b) kabi qimmatbaho tosh va metallarni ifodalovchi soʻzlar, shuningdek, *kalit*, *zaņu royan* (246 b), *saqarlat*, *aq uj*, *bárgáh*, *šámijána* (84 a), *taxt* (116 b), *sarájpara* // *sarápara*, *muxmal* (298 a), *sájabán* (316 b), *bel*, *kamand* (188 a), *matin* (190 a) kabi uy anjomlarini ifodalovchi birliklar tahlil qilingan.

Obida tarjimasida leksikasidagi soʻzlarning ayrimlari hozirgi oʻzbek adabiy tili va shevalarida ayni maʼno va shaklga ega boʻlsa, ayrimlari eskirgan, asar tilida ifodalagan maʼnolaridan boshqa semalari ham yuzaga chiqqan. Bu jarayonni muayyan soʻzlar tahlili misolida koʻrsatib berish tildagi soʻzlarning maʼno taraqqiyotiga oid qonuniyatlarni yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Bobning **“Diniy leksika”** nomli 1.5. paragrafi “Zafarnoma”dagi diniy tushunchalar, diniy taʼlimotlardagi makon (*doxax*, *žahannam*, *žannat*, *bihišt*, *Makka*, *Madina*, *arásat*); diniy taʼlimot va oqimlar, diniy mansublik yoki mansub emaslik (*mazhab*, *islám*, *buddavij*, *káfir*, *musulmán*, *eʼtiqádsiz*, *mušrik*, *bidʼat*, *dinsiz*, *gabr* // *atašparast*, *ijmánsiz*, *butparastlik*, *šariat*, *din*, *dindár*, *žamáat*, *kufir*, *mazhab*, *muslim*, *mumin*, *šahid*, *γazij*, *qári*, *háži* // *hažžáž*, *hur*); diniy vaziyat, hodisa, holat va tuygʻular (*qijámat*, *taváf*, *zijárat*, *túž yol*, *sadaqa*, *vaʼz*, *táat*, *γazá*, *žihád*, *nikáh*, *sunnat*, *farz*, *taqdir*, *qazá*, *áxirzamán*, *baʼjat*, *vasijat*, *gunáh*, *žinájat*, *dafn*, *ziná*, *istiγfár*, *karámat*, *kibrijá*, *mubáh*, *nazr*, *sabr*, *saváb*, *sálih*, *saná*, *sadaqa*, *sehr*, *tablìγ*, *fatvá fáł*, *xun*, *xutba*, *γazát* // *γazá*, *γanimat*, *šafáat*, *širk*, *qasás*, *γajb*, *halál*, *harám*, *hižrat axláq*, *ijmán*, *sunnat*, *farz*, *taqvá*, *nasihat*, *ibádat*); diniy amallarni bajarish uchun moʻljallangan joylar (*zuhd*, *butxána*, *xánaqáh*, *ataškada*, *dauraka*, *ijdgáh*, *masžid*); diniy marosim va bayramlar, muqaddas kunlar (*Ramazán ijd*, *hajit*, *Qurbán*, *šaʼbì qadr*, *mavlud*, *áxirat*, *qijámat*, *juma*); farz amallari (*ijmán*, *kalimayi šahádat*, *namáz*, *zakát*, *haž*, *pešin*, *šám*, *xuftán*, *namázi asr*, *namázi pešin*); “paygʻambar” maʼnosi (*payγambar*, *nabij*, *rasul*, *Ahmad*); paygʻambarning koʻrsatmalari, amallari va u bilan suhbatda boʻlganlar (*hadis*, *sajjid*, *sahába*, *ansárij*); diniy mansab-unvon, darajalar (*šajx*, *sufi*, *imám*, *qázi*, *muftiy*, *muazzin*, *hažžáž*); diniy tasavvurdagi mavjudotlar (*pari*, *hur*, *γilmán*, *Buráq*, *žin*, *jaʼžuž-maʼžuž*, *munkarnakir*, *arváh*, *malak*, *farišta*, *šajtán*); muqaddas diniy kitob va uning qismlari (*tavrát*, *sura*, *ájat*, *haftijak*, *xatm*, *takbir Qurʼán*, *Kalám*, *duá*, *Kalámulláh*, *Musʼhaf*, *pára*, *sura*, *ájat*, *tilávat*); diniy narsa-buyum, libos (*zam-zam suvì*, *ábi haját*, *salla*, *dastár*, *but*, *sanam*, *alam*, *hižáb*, *tasbih*, *kafan*); Alloh va u bilan bogʻliq tushunchalar (*Arš*, *Arši aʼlá*, *bajtulláh*, *Tāhri*, *Xudá*, *yetti qavat ásmán*, *Sultán*, *Xálìq*, *Pádšáh*, *Haq*); avliyo, pirlar va ular bilan bogʻliq tushunchalar (*Bábá Saņu*, *mavlá*, *mavláná*); diniy soliq (*žuzja*, *xiroj*, *ushr*); diniy taʼlim muassasasi (*madrasa*); tasavvufiy soʻzlar (*maqám*, *xáža*, *tariqat*) kabi bir necha mavzu guruhlariga ajratib oʻrganildi.

“Zafarnoma”da “ibodat” maʼnosida *namáz* نماز teonimi faol qoʻllangan, *salát* صلاة oz ishlatilgan. Bu birlik pahlaviy tilida *namás* shaklida boʻlib, qadimgi eroniy tilida “egilmoq”, “taʼzim qilmoq” maʼnosidagi *nam* soʻzi bilan aloqador³⁷.

Hind tilida salomlashishni bildiruvchi *namaste* soʻzi tarkibidagi *namas* “egilmoq”, “taʼzim qilmoq”, *te* qismi esa “senga” maʼnosini bildiradi. Demak, bu

³⁷ Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Тошкент: Мухаррир, 2013. – Б. 63.

so‘z tarixan bir o‘zakdan tashkil topgan. *Namáz* “Islom ko‘rsatmalari bo‘yicha ibodat turi” ma‘nosini bildiradi.

Yodgorlik leksikasida ibodat bilan bog‘liq *namáz*, *namázi pešin*, *namázi digar*, *namázi xuftán*, *ijd namázì*, *namázi ijd*, *žuma namázì* // *žamáat namázì*, *ertä namázì*, *raka‘at*, *tañi namáz* (azon aytish) kabi birliklar faol qo‘llangan. Asarda “namoz”, “iltijo”, “shukrona”, “duo”, “fotiha” ma‘nolarini anglatuvchi arabcha *salát* so‘zi ham faol ishlatilgan. Asar tilida *šám namázì* birikmasi yo‘q, lekin payt anglatuvchi *namázšám* birligi mavjud. *Azán namazì* birikmasi ham manbada qo‘llanmagan, mazkur namoz turi *ertä namázì* birikmasi bilah ifodalangan.

“Yoddan biluvchi, saqlovchi” ma‘nosini ifodalovchi arabcha *háfiz* o‘zlashmasi “Qur‘oni karim” suralarini qiroat bilan o‘quvchi qoriga nisbatan qo‘llangan. XI asrlarda Sharqdagi musulmon mamlakatlar, jumladan, Movarounnahr va Xurosonda mumtoz g‘azal va dostonlarni yoddan aytgan kishi, shuningdek, o‘zi ham ijodkorlik qobiliyatiga ega, kuy-ohanglarni esda saqlash quvva (hofiza)si o‘tkir bo‘lgan, yuqori malakali ashulachi, xonanda³⁸ *háfiz* deb yuritilgan. *Háfiz* so‘zi “Zafarnoma”da “yetuk ashulachi” ma‘nosida qo‘llanmagan. Alisher Navoiy asarlarida esa *háfiz* so‘zi ashula aytuvchi ma‘nosida qo‘llangan:

Čekti bulbul kibi miñ lahn ilä dastán háfiz,
*Yoq anıñdek yana bu davrda xušxán háfiz*³⁹.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “**Zafarnoma**” leksikasining **geneologik tadqiqi**” deb nomlanib, to‘rt paragrafni o‘z ichiga oigan.

Ma‘lumki, tilning leksik-semantik sathi mavjud so‘zlarning yig‘indisidan iborat. Ushbu sath tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan muttasil o‘zgarib, rivojlanib borishi bilan farqlanadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni leksik-semantik sathning doimiy o‘zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, tilning lug‘at sathi shakllanish va qo‘llanish doirasi jihatidan o‘zaro farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi⁴⁰.

Tildagi leksik (o‘z va o‘zlashma) qatlamlarni atroflicha tadqiq etish leksik-semantik taraqqiyot qonuniyatlarini belgilashda o‘ta muhim sanaladi. Zotan, leksika tarix, madaniyat, ilm-fan, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ilmiy tahlilda ularni hisobga olmasdan turib, so‘z ma‘nolarining o‘zgarish manbalari va sabablarini aniqlash mushkul⁴¹.

Bobning “**Turkiy qatlam**” deb nomlangan **2.1.** paragrafida “Zafarnoma” leksikasida qo‘llangan umumturkiy so‘zlar turli davrlarga oid turkiy yozma manbalar, shuningdek, boshqa turkiy tillarda aynan yoki fonetik farqlar va ma‘no evrilishlari bilan ishlatilganini kuzatish mumkin.

Asar so‘z boyligidagi turkiy qatlamni u tarjima qilingan davrdan oldingi manbalar va hozirgi o‘zbek tili leksikasiga qiyoslab o‘rganish lozim. Shunday taqdirdagina XV–XVI asr eski o‘zbek adabiy tili so‘z boyligi haqida aniq tasavvur hosil qilinadi. Xususan, obida leksikasini hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalar

³⁸ Ислон энциклопедияси. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – Б. 661.

³⁹ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. IV жилдли. I жилд. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 194.

⁴⁰ Холмонова З.Т. Тилшунослик назарияси. – Тошкент, 2019. – Б. 86.

⁴¹ Abdushukurov B.B. Qadimgi turkiy til. – Toshkent: “Navoiy universiteti” nashriyot-matbaa uyi, 2019. – B. 41.

soʻz boyligiga taqqoslash jarayoni juda koʻp soʻzlar tarkibida sodir boʻlgan fonetik, semantik oʻzgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

“Zafarnoma”dagi turkiy qatlamning hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanishi yuzasidan quyidagi toʻxtamlarga kelindi:

1. Asar matnida qoʻllangan soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tilida shakl va maʼnosini saqlab qolgan: *yaxšilik, keňaş, uruş, yol, bariş-keliş* va h.k.

2. Asarda qayd etilgan soʻzlar hozirgi oʻzbek adabiy tili va shevalarida turli fonetik shakllarda qoʻllanadi: *ev* (uy), *jajav* (yakka), *bölük* (boʻlak), *azuq* (oziq) kabi.

3. Manbada ishlatilgan soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida qoʻllanmaydi: *erän* (yigitlar, jangchilar), *qumaş, tura* (odam boʻyi barobar qalqon) va h.k.

4. Obida matnidagi ayrim soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida maʼno kengayishi yoki maʼno torayishiga uchragan holda ishlatiladi: *mal, maʼraka, háfiz* va sh.k.

Muayyan soʻzning ikki yoki undan ortiq turkiy tilda uchragani uning tillarning birortasidan ikkinchisiga qabul qilinganini koʻrsatmaydi. Bunday umumiylikning sababi turkiy tillarning asli bir tomirga, bir genetik asosga aloqador ekani, ularning lugʻat fondi yagona manbaga taalluqli boʻlgani bilan izohlanadi.

Ushbu paragrafda turkiy qatlamga oid *uluy, oyruq, yurtçi, körünüş, jortavul, atquvçi, başlamış, jasaqi* kabi soʻzlar ham tahlilga tortilgan.

Bobning 2.2. paragrafi “*Arabiy qatlam*” deb nomlangan. Taʼkidlash joizki, hozirgi oʻzbek tili lugʻat tarkibining taxminan yarmini turkiy soʻzlar tashkil qilgani, qolgan qismini eroniy, arab, moʻgʻul, keyingi yuz yil davomida esa rus tilidan va rus tili orqali Gʻarbiy Evropa tillaridan hamda, oz miqdorda boʻlsa-da, hind, urdu, pushtu, xitoy va boshqa tillardan kirgan soʻzlar tashkil qiladi⁴². “Zafarnoma” leksikasi tarkibida ham arab, fors-tojik, moʻgʻul, xitoy, fransuz, tohar, hind, sanskrit va yunon tillariga oid birliklar uchraydi. Ayniqsa, arabcha va forscha-tojikcha oʻzlashmalar asarda miqdoran salmoqli oʻrin egallaydi.

Arabcha lugʻaviy elementlarning oʻzbek tili nominativ va derivativ tizimidagi oʻrni boʻyicha D.Hasanovanning nomzodlik dissertatsiyasida qiziqarli maʼlumotlar berilgan.

A.Kik “Zafarnoma” tarjimasida turkiy qatlamga oid 5201 ta, 3077 ta arabcha, 1211 ta forscha, 32 ta moʻgʻulcha, 10 ta yunoncha, 4 ta xitoycha, 3 ta fransuzcha, 2 ta sanskritcha, 1 ta toharcha soʻzlar ishlatilganini taʼkidlaydi⁴³.

3077 soʻzning arabcha boʻlishi asar soʻz boyligiga nisbatan 30 %dan ortiqni tashkil qilishini bildiradi. Hozirgi oʻzbek adabiy tili lugʻat tarkibining taxminan 13-20 % ini arabcha soʻzlar tashkil qiladi⁴⁴.

XIV– XV asrlar eski oʻzbek adabiy tili leksikasining sezilarli ulushini arabcha qatlam tashkil etadi⁴⁵. Alisher Navoiy nazmiy va nasriy asarlari soʻz boyligining

⁴² Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форсча ва арабча сўзлар. // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 108.

⁴³ Ayse K. Zafer-mame-I Emir Temur, Muhammed Ali Bin Dervis Ali-yi Byhari (Inceleme – Metin – Dizin) Doktora tezi. С.III. – Istanbul, 2014.

⁴⁴ Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форсча ва арабча сўзлар.// Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 123.

⁴⁵ Боровков А. О языке узбекской поэзии // Общественные науки в Узбекистане. – Ташкент: 1961. № 10. – 42-43.

taxminan 30-33 % ini arab tilidan kirgan soʻzlar tashkil qiladi, forscha-tojikcha leksik elementlarning salmogʻi 18-20 % gacha boradi⁴⁶.

Koʻrinib turibdiki, Alisher Navoiy asarlari va “Zafarnoma”ning 1519-yildagi eski oʻzbek tiliga qilingan tarjimasida ishlatilgan arabcha soʻzlar miqdori foiz jihatidan bir-biriga mos keladi.

Oʻzbek tiliga bir qancha arab va fors-tojik soʻzlari kirib, ular oʻzbek tilidagi umumxalq elementlarini maʼlum darajada kuchaytirdi. Bunday soʻzlar oʻzbek tili tarkibida salmoqli oʻrin tutibgina qolmasdan, oʻz shaklini saqlagan holda, mahalliy dialektlar taʼsiriga ham uchradi⁴⁷.

“Zafarnoma”da faol qoʻllangan hamda “jang” va “jang maydoni” tushunchalarini ifodalovchi istilohlarning maʼno xususiyatlari borasida mulohaza yuritganda, ular ifodalagan maʼnolarga jiddiy eʼtibor qaratish lozim. Masalan, arabcha *maʼraka* oʻzlashmasi eski oʻzbek tilida: 1) “odamlar toʻplanadigan joy”; 2) “jang maydoni” maʼnolarini anglatgan: *Agarçi, heç andaç bolmadikim, öziniñ iligi işgä yetmiş bolçay, vale derlärkim, baʼzi maʼrakalärdä andin asari şijâat zâhir bolur ekändür*⁴⁸. *Va ul hamlada bir atliqni nayza bilän tüşürdi va anî baylab maʼrakadin çiqardi* (239 a). *Maʼraka* aslida arabcha *maʼrakatun* shakliga ega feʼl boʻlib, oʻzbek tilida “kurashmoq” maʼnosini ifodalaydi. Bu soʻz arab tilida “kurash”, “jang”, “kampaniya” maʼnolarini anglatadi⁴⁹. Mazkur soʻz “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 1) “motam marosimlarining yigʻindisi va har biri”; 2) “toʻy, tomosha va shu kabilar munosabati bilan boʻladigan yigʻin, marosim”, 3) “jang maydoni, jang” kabi maʼnolarni angatishi bilan omonim soʻz deb belgilangan. Demak, *maʼraka* soʻzining “motam marosimlarining yigʻindisi va har biri”, “toʻy, tomosha va shu kabilar munosabati bilan boʻladigan yigʻin, marosim” sememalari XVI asrdan keyingi davrlarda shakllangan.

Bobning 2.3. paragrafi “*Eroniy qatlam*” deb nomlangan boʻlib, unda fors-tojik tillarida yozilgan manbalarning oʻzbek tiliga tarjima qilinishi bois mazkur tillarga xos koʻpgina soʻzlarning tilimizga kirib kelish jarayonini kuchaytirgani xususida bahs yuritilgan. Ushbu jihat “Zafarnoma”ning eski oʻzbekcha tarjimasida ham aksini topgan.

“Zafarnoma”da *dasturxân* دستورخوان soʻzi koʻchma maʼnoda ham qoʻllangan. *Bas, şadmánliq dasturxânini tartib, kámranliq şiräsini tarttilar.* (184 b) *Dasturxân* soʻzining kelib chiqishi baʼzan “dastur”, “urf-odat” maʼnolariga bilan bogʻliq holda talqin qilinadi. Aslida bu soʻz tojik tilida *dastárxân* shakliga ega. E.Vohidov *dasturxân* soʻzini *dastár* va *xvana* soʻzlaridan tashkil topganini taʼkidlaydi. “...*Dastár* ham *romál* singari bir boʻlak matoni anglatadi. *Dast* – “qoʻl”, *ro* – “yuz”, *mál* – “mato”. Uch soʻzni qoʻshsa – *dastromál*. Kichkina roʻmol *romálça* deyilgani kabi kichik dastor *dastárça* deyiladi. Bu soʻz koʻproq “belbogʻ” maʼnosida keladi. Oʻzbekning toʻni – toʻshasa – koʻrpacha, ustiga yopsa – koʻrpa, boshiga qoʻysa – yostiqlik boʻlganidek, *dastár* ham boshga oʻrasa – salla, qoʻl yuvsa

⁴⁶ Qarang: Абдушукуров В.В. Eski turkiy adabiy til leksikasi. – Toshkent: Tafakkur boʻstoni, 2015 – B. 73.

⁴⁷ Qarang: Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 445.

⁴⁸ Захириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. Масъул муҳаррир В.Раҳмонов) – Тошкент: Шарқ, 2002. – 368 б.

⁴⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Икки жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – Б. 255.

– sochiq, ibodat qilsa – joynamoz, yozsa – dasturxon, o‘lsa – kafanlik bo‘lgan”⁵⁰. “...*Xán* esa bugungi tilimizda – *stol*. Ota-bobolarimiz chordana qurib o‘tirganlari uchun bizning stolimiz pastroq qilib yasalgan. Uni *xántaxta* ham deyiladi”⁵¹. ...Aslida bu so‘zlar arab xatida ikki xil yozilgan. *Stolni* anglatuvchi *xán* – *xáván* tarzida bitilgan va *xán* deb o‘qilgan. Bamisoli *Xávarazm* خوارزم yozib, *Xárazm* o‘qilgandek. Shu o‘rinda, hozir ham Xorazm shevalarida xamir yoyish uchun ishlatiladigan oshtaxtani *xona* deyilishini aytib o‘tmoq joiz. *Xona* “xavon” so‘zining tovush o‘zgarishiga uchragan shaklidir.

O‘zbek tili lug‘at tarkibida eroniy tillarga oid so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu xalqimizning uzoq tarixi bilan chambarchas bog‘langan. O‘zbek va tojik tillari asrlar davomida deyarli bir xil iqtisodiy-siyosiy va madaniy sharoitda yashab kelganlar⁵². Qolaversa, “Zafarnoma” fors-tojik tilidan o‘zbekchaga o‘girilganini hisobga olishda, turkiy so‘zlarga forscha-tojikcha so‘zlarning sinonim bo‘lib kelgan holatlarni nazardan qochirmaslik zarur.

Umuman, eroniy guruhga mansub tillarning eski o‘zbek adabiy tiliga ta’sirini “Zafarnoma”ning o‘zbekcha tarjimasida leksikasidan o‘rin olgan ayrim forscha-tojikcha so‘zlar misolida ko‘rsatib berish o‘zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlaridagi leksik fondi, so‘zlarning genetik tavsifi haqidagi muhim ma’lumotlarni oydinlashtirishga xizmat qilishi bilan birga, turkiy va eroniy xalqlar orasidagi madaniy-gumanitar aloqalar ajdodlar hayotida nechog‘lik ahamiyatga ega bo‘lganini til materiallari orqali dalillab berishga xizmat qiladi.

Bobning “***Turkiy-mo‘g‘ul leksik parallelklari hamda boshqa tillarga oid leksemalar***” deb nomlangan 2.4. paragrafida “Zafarnoma” tarjimasida mo‘g‘ulcha qatlamning asosan ijtimoiy-siyosiy, etnik, harbiy, maishiy va hayvonot dunyosi kabi mavzu guruhlarida doir leksema va istilohlarning keng ishlatigani xususida mulohaza yuritilgan. *Qundyay* (kiyik), *buranyar*, *žavanyar*, *daruyā*, *tavačì*, *hiravul*, *navrar*, *qavčìn* kabi so‘z va terminlarlar mo‘g‘ul tilidan o‘zlashgan.

Har ikki (turkiy va mo‘g‘ul) tilda mavjud bo‘lib, aynan qaysi til so‘zi ekani aniqlanmagan leksik birliklar tilshunoslikda turkcha-mo‘g‘ulcha leksik parallellar deb atalmoqda⁵³. “Zafarnoma” leksikasidagi *azuqa*, *atabek*, *axtačì*, *bakavul*, *qaravul*, *qışlaq*, *suran*, *sujuryal*, *tümän*, *oyruq*, *ulus*, *jurt*, *jurtčì*, *jaray*, *ordu*, *jasaq* kabi istilohlar o‘zbek tilida ham, mo‘g‘ul tilida ham bor va har ikki tillarda bir xil yoki yaqin ma’nolarda ishlatiladi.

Agar mo‘g‘ul tili turkiy til, qardosh til deb tushunilganida keltirilgan so‘zlar umumturkiy leksik qatlamga mansub bo‘lar edi. Lekin o‘zbek va mo‘g‘ul tillari boshqa-boshqa til guruhlariga mansub. Har ikkala tilda uchraydigan, lekin biror belgisi bilan qaysi bir tilga mansubligini aniqlash qiyin so‘zlarning har birini tarixiy-etimologik tahlil qilish lozim bo‘ladi. B.Ahmedov ham o‘z kitobida turkiy-mo‘g‘ulcha *tavačì*, *žarčì* va shu kabi terminlarni sharhlagan⁵⁴.

⁵⁰ Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2014. – Б. 73.

⁵¹ Ko‘rsatilgan joyda.

⁵² Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 109.

⁵³ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 57.

⁵⁴ Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 1994. – Б. 432.

Oltoylar turmushida ularning uylari muhim o‘rin tutadi. Ular yashaydigan, ko‘pchilik xalqlar *jurt* deb ataydigan uylar, ya‘ni kapalar daraxt shoxlari va po‘stlog‘i yoki kigiz va matolar bilan qoplanib, maxsus ustalar tomonidan tayyorlanadi. Bunday uylar tez va oson yig‘ib olinishi hamda yangi joyga ko‘chib o‘tganda qaytadan o‘rnatish uchun juda qulay bo‘lganligi bois, chorvadorlar hayotida juda qo‘l kelgan⁵⁵.

Toy توی asli mo‘g‘ul va turkiy xalqlar tilida “tantana” ma‘nosida ishlatiladi va barcha tantanalar ushbu leksema bilan ataladi. Shu sababli xalq yig‘inlari va ijtimoiy tadbirlar *qurultaj* قورولتای – mo‘g‘ulcha *Xuraltoy* (davlat to‘yi) deb nomlangan. Ovul va oilalarda o‘tkaziladigan tantanalar esa oddiy *toj* deb nomlangan⁵⁶. “Zafarnoma” leksikasida ham *qurultay* so‘zi “kengash” va “davlat to‘yi” ma‘nolarini ifodalaydi: *Va yana Sáhibqiránniñ işi bu erdikim, agarçi qurultaj qilib, beklári bilä va šahzádalar bilä mamlakat işi üçün keñäş qilur erdi* (318 a). *Sáhibqiráni kámkár qurultaj qilib, toy tartqandın soñ barča beklärgä ináyatlar qıldı va čerikdä yayaylarini atlandurdı.* (230 a)

Toy leksemasining etimologiyasi bo‘yicha mutaxassislar fikrlari haqida K.Danziyeva tadqiqotida keng ma‘lumot berilgan⁵⁷.

“Zafarnoma” tarjimasida hind, xitoy, yunon va boshqa tillarga oid o‘zlashmalar ham mavjud. Masalan, hindchadan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlardan biri *but* bo‘lib, buddaviylar sig‘ingan “haykalcha, sanam”larni anglatadi: *Va andayı butxánaları buzdurub, butlarnı küydürdi* (174 a).

Kutvál کتوال so‘zi ham hindcha bo‘lib, “qal‘a va shahar soqchilari otryadlarining boshlig‘i” ma‘nosini ifodalaydi: *Sáhibqirán Zanjiy Tuniyini anda kutvál qoydı* (291 b). Yirik bargli, katta-katta gulli, suvda o‘sadigan ko‘p yillik o‘simlik nomini ifodalovchi hindcha *nilufar* so‘zi asar tilida ikki marta qo‘llangan: *Tir sahmidin erdi xalqı zár, Qib-qızıl yüzlári erdi nilufar* (84 a). *Távus* طاووس so‘zi ham hind tilidan o‘zlashgan: ...va *távus-u toti va özgä ajáyib quşlar köb erdi* (217 b). “Chodir, o‘tov” ma‘nosidagi *čadır* so‘zi ham hind tilidan o‘zlashgan: ...*Sáhibqirán Tümanniñ čádırıdın čiqqanda ul anda qalib erdi...* (20 a).

Eski turkiy tilda *jınžu* // *jenžu* // *žinžu* shakllariga ega “dur, marvarid” ma‘nosini beruvchi xitoycha so‘z “Zafarnoma”da prokopa hodisasiga uchragan holda *inju* shaklida ikki o‘rinda ishlatilgan: *Husaynbekkim, hargiz kişigä bir qara pul bermäs erdi, qorqunčdın bir avuč inju aña berdi* (55 b). Asar tilida *inju* so‘zining forsha-tojikcha *gavhar*, arabcha *dur* sinonimlari ham ishlatilgan: ...*boşlarıda altun buqtaq la‘l va gavhar bilä murassa va zarbáft tonlar kiyib, anváyi tajammul bilä olturub tururlar...* (116 b); *Kišíkim, öz-özige mayrur erür, Xirad ul kişidin, base, dur erür* (37 a).

Xitoycha *čaj* چای so‘zi “Oltin yorug‘” manbasida “qo‘ng‘iroqcha”, “Devonu lug‘otit turk”da “zarbli musiqa asbobining tarekasi” ma‘nolarida kelgan.⁵⁸ Demak, “Zafarnoma”da ham *čaj* termini “qutisimon trapetsiya yoki yoy shaklidagi, sim

⁵⁵ Бўронов А. Олтойлар. – Тошкент: Мухаррир, 2017. – Б. 17.

⁵⁶ Бўронов А. Ко‘rsatilgan asar. – Б. 65.

⁵⁷ Dənziyeva K. Azərbaycan dilində toy mərasimi leksikası (Lənkəran bölgəsinin materialları əsasında). – Bakı: Elm və təhsil, 2012. – S. 87-93.

⁵⁸ Древнетюркский словарь. – Л.: Наука, 1969. – С. 169.

torlar tortilgan, tirnama yoki qo‘sh cho‘p bilan urib chalinadigan jarangdor cholg‘u asbobi” ma‘nosini ifodalaydi: *Čertišib mutribläri čun Zuhra áhañ, Elikläridä daf birlä nay va čañ.* (129 a)

“Zafarnoma”da fors-tojikcha+xitoycha shakldagi **gulšan** so‘zi uch o‘rinda turdosh ot va bir o‘rinda joy nomi sifatida qo‘llangan: *Ču gulšan bolubtur jahán taxtidin, Yaruq boldi álam yana baxtidin* (128 a).

Umuman, tillarning o‘zaro ta’siri va aloqasida Buyuk ipak yo‘lining roli masalasini “Zafarnoma”ning o‘zbekcha tarjimasida leksikasidan o‘rin olgan ayrim so‘zlar misolida ko‘rsatib berish o‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlaridagi leksik fondi, so‘zlarning genetik tavsifi haqidagi muhim ma‘lumotlarni oydinlashtirishga xizmat qilishi bilan birga, Buyuk ipak yo‘li ajdodlar hayoti, turmush tarzida nechog‘lik ahamiyatga molik bo‘lganini til materiallari orqali dalillab beradi.

Dissertatsiyaning III bobi “**Zafarnoma**”dagi **lug‘aviy birliklarning leksik-semantik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Mazkur bob to‘rtta paragrafdan iborat. Bobning **3.1.** paragrafida asarda ishlatilgan ma‘nodoshlar borasida fikr yuritilgan. “Zafarnoma” tarjimasidagi sinonimlar lug‘aviy qatlamlar va ma‘noviy xususiyatlar nuqtayi nazaridan quyidagicha tahlil qilingan:

1. Turkiy so‘zlararo ma‘nodoshlik. Bunda o‘z qatlamga oid so‘zlar sinonim sifatida keladi. Bu holat fe‘l, sifat hamda ot turkumli so‘zlarda ko‘p kuzatiladi. Masalan, *ákä* so‘ziga ma‘nodosh sifatida *aya* termini ishlatilgan: *Va andin köcüb, Xäja ayağa barib tüšti...* (302 b) Lekin “Zafarnoma”ning o‘zbekcha tarjimasida *aya* termini Amir Temur oilasidagi yoki unga qarindosh ayollarga nisbatan ishlatilganini ham e‘tibordan qochirmaslik kerak. Bunda *ayä* so‘zi *ákä*, *aya* so‘zlariga sinonim hisoblanmaydi: *Šamsuddinbekniñ xatuni Buyan aya va qizi Dilšád aya elikkä tüšti* (66b). Asarda *xanım*, *begım* so‘zlari ham yuqori martabali ayollarga nisbatan qo‘llangan: *...Malakatbekni šahzädalar xizmatida qoydi va begımlär va ayalarniñ barčasini qaytardi* (118 a).

2. Turkiy (o‘zbek) va fors-tojik so‘zlariaro sinonimiya. O‘zbek tili lug‘at tarkibida eroniy tillarga oid so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi. Bu xalqimizning uzoq tarixi bilan chambarchas bog‘langan. O‘zbek va tojik tillari asrlar davomida deyarli bir xil iqtisodiy-siyosiy va madaniy sharoitda yashab kelganlar⁵⁹. Qolaversa, “Zafarnoma” fors-tojik tilidan o‘zbekchaga o‘girilgani hisobiga ham unda turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar bilan forscha-tojikcha elementlarning sinonimik qatorga birlashgan holatlari ko‘p uchraydi. Masalan, turkiy *uruš* so‘zi bilan forscha-tojikcha *žañ*, turkiy *jaman* so‘zi bilan fors-tojikcha *bad* so‘zlari sinonimik uyani yuzaga keltirgan (230 a).

Asar matnida *el*, *ulus*, *xalq*; *oñ*, *baranyar*; *sol*, *žuvanyar*; *ordu*, *laškar*, *sipáh*; *jasal*, *saf*; *jayij*, *dušman*; *av*, *šikár*; *qattiq*, *ásán*; *Xudá*, *Parvardigár*, *Täñri*; *el*, *xaşamnišin* kabi sinonimik qatorlar faol ekani aniqlandi va ular keng tahlil qilindi.

3. Turkiy va arabcha so‘zlararo ma‘nodoshlik. Arabcha so‘zlar turkiy tillarga VII–VIII asrlardan o‘zlasha boshlagani bilan bog‘liq tarixiy sharoit barchaga ma‘lum. “Zafarnoma”dagi arab tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan ko‘pgina so‘zlar arab tilida ifodalaydigan ma‘nolaridan farqli ravishda boshqa ma‘nolarda

⁵⁹ Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составида тожик-форсча ва арабча сўзлар // Навоийга армуғон. – Тошкент: Фан, 1968. – Б. 109.

qo‘llangan hamda o‘zbek tili qonuniyatlariga bo‘ysungan holda turli semantik o‘zgarishlarga uchragan. Bu holat arabcha so‘zlarning o‘zbekcha so‘zlarga sinonim sifatida qo‘llanishiga sabab bo‘lgan. Turkiy *keňaş* so‘ziga arabcha *maslahat*, *mažlis* so‘zlari sinonim sifatida ishlatiladi. “Sog‘lik, sog‘-salomat bo‘lishlik” ma‘nosidagi *sayliq* so‘ziga arabcha *salamát* so‘zdan *-liq* qo‘shimchasi orqali yasalgan *salámatlik* so‘zi sinonim hisoblanadi. *Ošul kün kečgä yaqin šahzáda Šáhruxnuş navkari Hirátdin kelib sayliq va salámatliq xabarini keltürdi* (196 b).

“Zafarnoma”dagi *üläštir=- qismat qil* (258 a), *beg-amir* (243 b), *qorýan-qal’a* (57 b), *suran-yavyá* (265 b) kabi sinonimlarning qo‘llanishida ham o‘ziga xosliklar kuzatildi.

4. Turkiy (o‘zbekcha), fors-tojikcha va arabcha so‘zlararo ma‘nodoshlik. Muayyan so‘zlar o‘zga tilga oid element bilan sinonim deb baholanishi uchun, avvalo, ular bir xil ma‘noga ega bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, o‘zlashgan so‘z shu tilning leksik birligiga aylangan bo‘lishi kerak⁶⁰. “Zafarnoma”ning o‘zbekcha tarjimasida bunday talablarga javob beradigan turkiy, forsha-tojikcha va arabcha so‘zlar asosida hosil bo‘lgan sinonimik qatorlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Masalan, turkiy *kiši- kimsä* fors-tojikcha *mardum*, arabcha *ádam, insán, bašar* (70a, 273a) so‘zlari ma‘nodoshlik qatorini shakllantirgan.

5. O‘zlashma so‘zlararo ma‘nodoshlik. Bu jarayon boshqa tillardan narsa-buyum, tushuncha bilan birga uni ifodalovchi so‘zning kirib kelishi yoki boshqa tillarga oid sinonimlarning o‘zlashishi bilan shu so‘zga sinonim bo‘lgan o‘z so‘zining iste‘moldan chiqib ketishi kabi omillar asosida sodir bo‘ladi.

Eski o‘zbek adabiy tilining fors-tojik va arab tili ma‘nodoshligi ko‘p kuzatilgan davrlarda (XIV–XVII) turkiy muqobilning iste‘mol doirasi nisbatan toraygan⁶¹. Navoiy asarlarida uchraydigan *jazuq // jaziq* turkiy so‘zi “Zafarnoma”da ўя ishlatilgani holda, uning *ajb* (arabcha), *gunáh* (fors-tojikcha) sinonimlari keng iste‘molda bo‘lgan: *Bu uluy ajb tururkim, mundaq čerik yiyilib heč iš qilmay qaytqaybiz* (307 a); *Alarniň xátirlari jihatidin gunáhidin kečib alargä bayišladı.* (26 b) Obida leksikasida *žahán-álam; davlat- mamlakat; inájat- tuhfa; imára-inšáát* kabi o‘zga tillardan o‘zlashgan sinonimlar shular jumlasidandir.

Asarda arab tilidan kirgan *sadá- nıdá; alámat- asar; ádam- bašar- insán; qazá- favt; pušajmán- nadámat; muláqát- suhbat* kabi so‘zlarning o‘zaro ma‘nodoshlikni hosil qilganligi aniqlandi.

Bobning 3.2. paragrafi asarda qayd etilgan omonimlar tahliliga qaratilgan. “Zafarnoma”ning o‘zbekcha tarjimasida bir turkum doirasida shakldosh bo‘lib, grammatik shakllarni qabul qiladigan hamda turli so‘z turkumlari doirasiga xos bo‘lib, faqat asos qismi nuqtayi nazaridan shakldosh bo‘ladigan so‘zlar talaygina. Asardagi omonimlar asosan narsa-buyum, uning belgisi hamda harakat-holatini bildirishga xoslangan. Chunonchi:

Böläk I – “guruh”: Badyisdin bir böläk kiši at keltürüb satarlar edi va qalın el yiyilib savdá qılurlar edilär (8 b); 2) “qism”: *Va čeriki nečä böläk erdi.* (261 b)

⁶⁰ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 247.

⁶¹ Дадабоев Н., Хамидов З., Холмонова З. Ўзбек адабий тили лексикаси тарихи. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 100.

Böläk II – “sovg‘a”, “tortiq”: *Háji Vazir atliq navkarini köb böläklär bilän va atlar va qatar xaçirlar-u tevälär va qumaşdin bihad hazratqa yibardi* (62a). Asarda *böläk-böläk* takroriy so‘zi ko‘p ishlatilgan bo‘lib, u “bir guruh odam”, “alohida-alohida” kabi ma‘nolarni ifodalaydi.

Bay باغ I – turkiy so‘z bo‘lib, “biror narsaning to‘dalab bog‘langan holati” ma‘nosini ifodalaydi: ...*Va har bir atliq ikki uluy bay šax alib, atniq ikki yanida býlasunkim...* (24 a)

Bay باغ II – forsha-tojikcha so‘z bo‘lib, “mevali daraxt ko‘p ekiladigan yer maydoni” ma‘nosidadir: *Va bir bay içidä bir košk saldi va bu bayniq ati “Bayi davazdah burj” boldi* (74 b),

Bobning 3.3. paragrafda asardagi antonimlar lug‘aviy qatlamlar va ma‘noviy xususiyatlar nuqtayi nazaridan turli ko‘rinishga egaligi, ular turkiy, arabcha va forcha-tojikcha qatlamga oid bo‘lib, asosan ot, sifat, fe‘l va ravish turkumlariga xos so‘zlarda namoyon bo‘lgani ochiqlandi.

“Zafarnoma” da o‘z va o‘zlashma qatlamga taalluqli so‘zlar narsa-hodisa va shaxs bildiruvchi so‘zlar qarama-qarshilikni yuzaga chiqarganini ko‘rish mumkin. Bu jarayon boshqa tillardan narsa-buyum, tushuncha bilan birga ularni ifodalovchi so‘zning kirib kelishi yoki boshqa tillarga tegishli antonimlarning o‘zlashishi kabi omillar asosida sodir bo‘ladi.

Masalan, *äkä* اكا // *aya* آغا ma‘nodoshlariga antonim sifatida *ini* termini ishlatilgan: ...*Husaynbekniq inisini yibardi*. (58 a) Asar tilida *äkäning ükä* antonimi mavjud emas. Shuningdek, *birádar* so‘zi ham ishlatilmagan, faqat bir o‘rinda “aka yoki ukaning farzandi” ma‘nosidagi *birádarzáda* (315 b) so‘zi bor. *Aya* va *ini* so‘zlari ishtirokida *aya-ini* juft so‘zi yuzaga kelgan: *Anda Sayin Temür bilä Murádnä va aya-inilärinikim, alardän yaman harakat zahir bolub erdi, yasaqqa yetkürdilär* (269 b).

Asar tilida oq qol – sol qol; ayuz (boshlanish) – *ayaq* (oxir); *kelgüçl – baryuçl; atliq – jajaq; báqij – fánij* kabi so‘zlar antonimligi ham mavjud. Shuningdek, *uruš – jaraš, uruš – tinčlik, oq qol – čap qol, vafá – jafá, šarq – yarb, janub – šimál, kündüz – kečä, šám – taq* kabi narsa-hodisa hamda o‘rin va payt bildiruvchi so‘zlar antonimligi kuzatildi.

So‘z turkumlari bo‘yicha antonimlar belgi bildiradigan so‘zlar doirasida, ayniqsa, sifat va ravishlar orasida ko‘p uchraydi⁶². “Zafarnoma” leksikasi tarkibida xususiyat-holat va shakl-hajm bildiruvchi *šád – yamnák, uluy – kičik* kabi sifatlar antonimligi talaygina.

Manba leksikasidagi *bar= – kel=, bar= – qajt=, bar= – jan=* (qaytmoq), *jur= – tur=* (to‘xtamoq), *kir= – čiq=, al= – ber=, kij= – ječ=, buz= – tüz=, jat= – tur=* kabi harakat so‘zlari antonimiyasi; *köb – az, yuqori – past, avval – soq, içkäri – tašqari, taqlasi – kečäsi, tez – sekin* kabi ish-harakat va holatning belgisini bildiruvchi so‘zlar antonimiyasi ham tahlil qilindi.

Bobning 3.4. paragrafi “*Polisemiya*” deb nomlanadi. Ma‘lumki, polisemiya bir turkum doirasida leksik ma‘nolardan tarkib topishi, ularning o‘zaro bog‘liq bo‘lishi, ma‘nolarning ayni so‘zning o‘ziga oidligi bilan boshqa hodisalardan

⁶² Раҳматуллаев Ш., Маматов Н. Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 7.

ajralib turadi⁶³. Asar leksikasida *tüz* sifati “to‘g‘ri, rost, kelishgan” ma‘nolarida ishlatilgan: *Alibekniñ zavál küni axšamiya yetib erdi va baxt andin qaytib erdi, anı qoymadikim, tüz yolida baryay* (83 b); *Arqámki, erur xizmati Islám ućun egri, Bu egrilik ućün zafar arqasi bolur tüz.* (130 a) Ushbu so‘z asarda “saf tortgan qo‘shin” ma‘nosida ham ishlatiladi: *Čerik tüzi ćun ćiqti álam ara, Ki kün boldi tündek yana qap-qara.* (72 a)

Tü=z توز fe‘li ham polisemantik hisoblanib, asar tilida quyidagi ma‘nolarda qo‘llangan:

1. Bino qilmoq, yaratmoq: *Va Sáhibqiránkim, ba‘zi viloyatlarni alib buzar erdi va ba‘zini tüzub, imárat qilur erdi, ul pádšáhliq maslahati ućun erdikim, pádšáh siyásat qilmayanća viláyat tuzalmas.* (107 b)

2. Qo‘shinlarni safga tizmoq, qo‘shin hozirlamoq: *Ikki tarafdin čerik Balx muqobilasida yetišib, Abdulláh ariyini ortada olib, yasal tüzdilar va uruśqa yuzlandilar.* (21 a) *Šahzáda Karmina mavzeyida duşmanlarya yetib, ikki tarafdin saflar tüzatib, uruś ettilar.* (68 b)

3. Musiqa asbobini chalmoq: *Va alarniñ ićidä Xája Abdulqádirkim, nádirul-asr va yagánayi zamána erdi, ud áhajiñi tüzub, Dávuđtek nayma etib, bu duáni der edi* (185 a).

“Boburnoma”da forscha *jašn* جشن so‘zi *čašn* shaklida qo‘llanib, “ziyofat”, “to‘y”, “bazzm” ma‘nosini anglatgan: *Andin soñ türk va hind umarálarini ćarlatib, čašn berdük* (BN.265.II). Navoiy asarlarida ham bu so‘z “tantanali yig‘ilish”, “bazzm” ma‘nosida qo‘llangan⁶⁴. Bu so‘zning ikkinchi harfi *o* bilan yozilib “maza-ta‘m” ma‘nosini ifodalagan o‘rinlar ham bor: *...ćüćükligidä zardálu mayxuślugidin aändäk čašnibar* (BN.35.I). “Xazoyin ul-maoniy” devonida *čas* qo‘shma so‘zning ikkinchi komponenti sifatida kelib, “ichuvchi”, “totuvchi”, “qiluvchi” ma‘nosida qo‘llangan:

May ićrä aksin ara sáfčas̄ya ayš-u naját,

*Qadahda naš‘añ ilä durdikašya zavq-u surur*⁶⁵.

Rus tilida “kosa”, “qadah”, “jom” ma‘nosidagi *časa* so‘zi, shuningdek, tilimizga o‘zlashgan “dastali piyola”, “kosacha” ma‘nosidagi *časka* so‘zlari ham, bizningcha, “ichuvchi”, “totuvchi” ma‘nosini beruvchi forscha *čas* so‘zidan kelib chiqqan. Forscha *časma* so‘zidagi *čas* ham shu asosida voqelangan.

“Boburnoma”da “tatib ko‘ruvchi”, “ovqat nazoratchisi” ma‘nosida *čašnigir* so‘zi ishlatilgan (BN.217.I). Hozirgi o‘zbek tilida *čašnaćilik, čašnagirlik* so‘zlari “uzum, vino, oziq-ovqat mahsulotlari yoki o‘simlik xomashyosi sifatini ko‘rish, hidlash, ta‘m bilish, eshitish a‘zolari orqali aniqlash” ma‘nosida ishlatiladi⁶⁶. Bizningcha, “maza-ta‘m” ma‘nosidagi *čašn* so‘zining “ziyofat” tushunchasini anglatuvchi ko‘chma ma‘nosi paydo bo‘lgan.

“Zafarnoma” tarjimasidagi polisemantik so‘zlarning o‘ziga xos qo‘llanishi, ayrim so‘zlar semalarining ishlatilishi jihatidan o‘sha davrlarda yaratilgan boshqa

⁶³ Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 47.

⁶⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 458.

⁶⁵ Қо‘rsatilgan lug‘at. – Б. 457.

⁶⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилдли. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.- Тошкент, 2008. – Б. 465.

manbalardagidan farq qilishi kabi omillar eski o‘zbek adabiy tilining XVI asrdagi takomiliga ushbu asar so‘z boyligining qo‘shgan hissasini ko‘rsatib berishi shubhasiz.

Dissertatsiyaning IV bobi **“Zafarnoma” leksikasining funksional-stilistik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Mazkur bob uchta paragrafdan iborat.

Bobning **4.1.** paragrafi **“Zafarnoma”ning tili va uslubi**” tarzida shakllantirilgan. Ushbu paragrafda tadqiq qilinayotgan manba tilining uslubi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, asar tarixiy mavzuda yozilgan bo‘lishiga qaramay, unda badiiy uslubga xos xususiyatlar ustunlik qilishi kuzatildi. Chunki asar tilida ko‘chimlar, badiiy tasvir vositalari, uslubiy figuralar juda ko‘pchilikni tashkil qiladi. Unda o‘sha davr adabiy tili va umumxalq tilida mavjud so‘zlar, shuningdek, boshqa til uslublariga xos lisoniy vositalarning qo‘llangani obidani badiiy uslub sifatida belgilashga asos bo‘ladi. Asar tarjimoni mavjud so‘z boyluklaridan ustalik bilan foydalangan, ayrim til vositalarini yangi ma‘no hamda vazifalarda qo‘llay olgan. Manbada Amir Temurning hayoti, faoliyati, harbiy yurishlari bayoni tarixiy haqiqatga asoslanib ifodalangani barobarida voqealar tasviri, jang voqealari bayonida muallif va asarning tarjimoni mubolag‘a, ko‘chim, o‘xshatish, sifatlashlarni keng ishlatgan. Asar matnida undov va taqlidlar, dialoglar, ko‘chirma hamda o‘zlashtirma gaplar faol qo‘llangan. Asarda juda ko‘p she‘riy parchalar keltirilgan bo‘lib, mutaxassislarning ta‘kidlashicha, tarjimon ularni eski o‘zbek adabiy tiliga erkin o‘g‘irgan. Shuningdek, “Quroni karim” sura va oyatlari, hadislar ham asar tilini badiiylashtirishga xizmat qilgan.

Bobning **4.2.** paragrafi **“Atash ma‘nosiga ega so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari**” deb nomlandi. “Zafarnoma”ning eski o‘zbek adabiy tiliga tarjimasidagi lisoniy birliklar o‘ziga xos funksional-stilistik xususiyatlarga egaligi bilan diqqatni tortadi. Asardagi lisoniy birliklarning xususiyatlarini ko‘rsatib berish uchun u bilan bir davrda yaratilgan “Boburnoma” tiliga qiyoslab o‘rganish juda muhimdir. Masalan, har ikki asar tilida bayram, marosim tushunchasini ifodalovchi nomlarning faol ishlatilganini kuzatish mumkin. Chunonchi, *Navruz*, *Ruza*, *Ramazán* bayramlari va ularning o‘tkazilishiga oid qiziqarli ma‘lumotlar bor.

Ijd عيد arabcha so‘z bo‘lib **‘ijd (ip)** shakliga ega; o‘zbek tilida kasrali ayn tovushini **i** tovushiga almashtirib talaffuz qilinadi. Bu so‘z asli **a:da** fe‘lining “bayram qildi” ma‘nosidan hosil qilingan masdar bo‘lib, arab tilida “bayram” ma‘nosini, o‘zbek tilida esa “hayit” ma‘nosini anglatadi: *iydi ramazán*⁶⁷.

Arabcha *ramazán* رمضان so‘zi *ramadan(un)* shakliga ega; o‘zbek tiliga *dz* undoshini **z** undoshiga, cho‘ziq **á** unlisini **a** unlisiga almashtirib qabul qilingan: *ramadán* → *ramazân* (ramazon); ko‘p ma‘noli *ramida* fe‘lining “qiyinchilik keltirdi” ma‘nosi bilan hosil qilingan I bob masdari bo‘lib, “qamariya yil hisobidagi to‘qqizinchi oy” (“ro‘za tutiladigan oy”) ma‘nosini anglatadi⁶⁸.

Ma‘lumki, islomda asosan ikkita rasmiy diniy bayram mavjud bo‘lib, ular katta bayram – *Qurbán hajjti* (arabcha nomi – “Iyd al-kabir”, “Iyd al-adha” عيد الكبير // عيد الاحدى) yetti kun, hozir uch kun – hijriy zulhijja oyining 10–13-kunlarida

⁶⁷ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Икки жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Университет, 2003. – Б.160.

⁶⁸ Ko‘rsatilgan lug‘at. – Б. 352.

va kichik bayram – *Roza hajitî* (arabcha nomi “Iyd as-sag‘ir”, “Iyd al-fitr” عيد الصغبر // عيد الفطر) ham uch kun – shavvol oyining 1-3-kunlarida nishonlangan.

“Zafarnoma” va “Boburnoma” da mazkur bayramlar nomi so‘zlashuv uslubiga xos *ijd* so‘zi bilan ifodalanganini, ba‘zan *Ro‘za hayiti Ijdi fitr* shaklida berilganini ko‘rish mumkin: ... *Ijd kuni erdi, ul yerda namozi iyd o‘qub, niyoz yuzini tufroqqa surtub, anda ijd qildi.* (131 a) *To‘nglasi Ijdi fitr namozini anda qilib, Samarqand ustiya mutavajjih bo‘lub, Obyor qo‘ruyiga tuštuk.* (Boburnoma. 55. II)

Ramazon oyi boshlangan payt *ijd hılalı* عيد هلالی birikmasi bilan atalgan o‘rinlar ham bor: *Ijd hılalı bu yurtga koruldi* (BN. 177. II). *Hılál* so‘zi “yangi oy” demakdir.

Ijd so‘zidan -goh qo‘shimchasi orqali *ijdgáh* عيدگاه – “bayram o‘tkaziladigan joy” ma‘nosini beruvchi so‘z ham yasalgan: “*Va Mirzá Kámran Qandahárdin Kábulya kelgan ekandur. Ijdgáh*ta muláqát qilib, hayrán bolub, tavajjuh sababini sorabtur” (BN. 266. I); ...*qabul qilyon yarmaqni alib, xazinaya tabšurdi va iyd kuni hazrat ijdgáh sari atlanib, ul hazratniñ atiya xutba oqudilar va iyd namázini oqub, yurtiya tušti.* (104 a)

Ijd so‘zi antroponimlarga ko‘chgan holat ham uchraydi: *Ijd Xájani qaravulluqqa yibardilar.* (107 a) Hozirgi tilimizda *ijd* so‘zi antroponim sifatida uchramasa ham, uning variantlari *Hajit, Hajitžan, Hajitbaj, Hajitgul; Roza, Rozibaj, Orázugul, Orázmát; Qurbán, Qurbánaj* kabi ko‘rinishlarda mavjud.

Ma‘noni kuchaytirish uchun *asru azim, qattiq* so‘zlari yordamida orttirma daraja hosil qilingan: *Va Jahonšáh Bahádur tumani bila bir yandin kelib dušmanlarya hamla qildi va üsru äzim qättiq uruš bo‘ldi.* (169 a)

“Zafarnoma” matnida miqdor va tartibni bildiruvchi so‘zlar ham o‘ziga xos funksional-stilistik xususiyatlarga ega.

Asar tilida forscha ikkita son nomi qo‘llangan. Bular *jak* va *du* so‘zlaridir. *Yak* so‘zi bir marta, *du* so‘zi uch marta ishlatilgan: *Bu hálatdin hazrat sáhibqiránniñ koñli azurda boldi, bávujud ulkim, alar dušman bila bîr – jak erdilar.* (42 a) *Bîr* so‘zining o‘zbekcha va forscha variantlari orqali takroriy ravishlar hosil qilingan bo‘lib, *bîr-bîr, jakba-jak* so‘zlari ishlatiladi: *Agar barčani bîr-bîr bayan qilsak, uzun-uzaq bolur.* (121 a)

Xudoyiki qudratdin yetti falak,

Aning vahdatiya jahon jakba-jak. (127 a)

Asarda *bîr* leksemasi 494 marta qo‘llangan. Shuningdek, *bîr-bîr* takroriy so‘zi 120 marta ishlatilgan. *Bîr-ikki* juft so‘zi faqat bir o‘rinda aks etgan.

Tarkibida *jak* يك so‘zi qatnashgan *jakžihat, jakdîl, jakšanba* so‘zlari ham mavjud: *Aniñ muxolifatiya jakžihat bo‘lmoq kerak* (53 a); ... *yakdîl ittifoq qilib...* (56 b)

Du دو sonining qo‘llanishiga misol: *Tañ erur mamlakate bar du šáh, Kordimu kiši falak ichra du máh?* (52 a)

Toqquz soni takroriy tarzda “kelin tomonga yuboriladigan to‘qqiz dasturxon” ma‘nosida ishlatiladi: *Va toqquz-toqquzlar-u peškašlarkim, yibarib erdi, barčani tartti.* (145 b)

Juft sonlar chama, taxmin ma‘nolarini anglatgan: *Va čerik eliga on kišiga jigirmi-ottuz qiz-u xotun olja tušub erdi.* (207 b)

Lak soʻzi “yuz ming” maʼnosini ifodalagan: *Suvalak toyiniy daralaridakim, ul yerni b̄ir lak va dangi Hindustan viloyatidin tutarlar, gabrlardin kob kiši anda yiyilib turur.* (212 b)

“Zafarnoma” matnida olmoshlar ham oʻziga xos vazifaviy, uslubiy xususiyatlarga ega. Kishilik olmoshlari *men, sen, ul // u, b̄iz, s̄iz, ular // alar* shaklida ishlatiladi. Va *meḡa* soʻzlar aytib yibardiḡkim, zarurat boʻlib *seḡa* keldim (266 a) *Ul* soʻzi 967 marta ishlatilgan, *u* soʻzi esa 18 marta qoʻllangan. *Ular* soʻzi bir marta ishlatilgan: *Ular, yoz erdikim, Tabrizya yettilar.* (259 a) Boshqa oʻrinlarda *alar* shakli ishlatilgan:

*Ki bašdin ayaq temur ičinda yarq,
Qaranyu alar gardidin yarb-u šarq.* (7 a)

III shaxs birlikdagi kishilik olmoshi *an̄ḡ, an̄, aḡa, anda, andin* shakllarida ishlatilgan. Va *beklar ani s̄ahibqir̄an qašiya kiyurdilar.* (273 b) *Musulm̄an bolȳandin soḡ seni and̄aq in̄ayat va šafqat qilurbizkim, ālam ahli and̄in hayr̄an qalgaylar.* (280 a)

Men, sen, b̄iz, s̄iz kishilik olmoshlari yuzasidan olib borilgan kuzatishlar ularning stilistik imkoniyatlari keng ekanligini koʻrsatdi. Masalan, *kamina, faqir, banda, benav̄a, mazlum, n̄atav̄an, telba, šikasta, qul, haqir* kabi birliklar qadimdan *men* olmoshining sinonimlari boʻlib kelgan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ular qoʻllanmaydi. Ammo badiiy uslubda, tarixiy mavzulardagi adabiy asarlarda ularga duch kelinadi⁶⁹.

Soʻzlovchining kamtarlik xususiyatini boʻrttirish uchun olmoshlashtirish hodisasidan foydalaniladi. Bunda *ādam, k̄ish̄i, kamina, faqir, banda* kabilar ishlatiladi⁷⁰. *Men* olmoshi oʻrnida ot turkumiga oid soʻzlar yakka holda yoki izofa koʻrinishida *kamina, banda, bandayi kamina, bandayi haq̄ir x̄aks̄ar* kabi shakllarda uchraydi. (281 a, 77 a, 2 b)

Harakat belgisini bildiruvchi soʻzlar ham asar tilida oʻziga xos funksional-stilistik xususiyatlarga ega. Asarda payt bildiruvchi ravishlar koʻp ishlatilgan: *Ikki kunyača hazrat sabāh erta atlanur erdi va āqš̄am tušar erdi va har bir bek va šahz̄adaya yetar erdi.* (121 a)

Tadqiqotda asarning stilistik xususiyatlari keng yoritib berildi. Bunda manbadagi soʻzlarni funksional xususiyatlari bilan yonma-yon tahlil qilish usulidan foydalanildi.

Nisbiy motivlanganlik leksik birliklarning munosabati yoki oʻzaro nisbati yordamida aniqlandi. Matnda *t̄ülk̄i* تیلکو soʻzi orqali oʻxshatish va metaforalarning hosil qilinishi nisbiy motivlanganlikka misol boʻla oladi: *T̄ülk̄idek jangaldin čiqtilar va kaminda turyan šerlardin ȳafil erdilarkim, n̄aḡah ul bah̄adurlar kaminlardin čiqib, ul k̄af̄irlar ustiga tokuldilar.* (216 b)

*T̄ülki nečük q̄ilur bu jah̄an ičr̄a šeri nar šik̄ar,
Yalyan erür bu s̄öz, biliḡ, ey ahli ruzḡar.* (51 b)

⁶⁹ Юсупова О.С. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент: 2011. – Б. 10.

⁷⁰ Қиличев Э. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 48.

“Zafarnoma”da *sultáni falak, yetti iqlim báybáni* (Quyosh), *hazrat sáhibqiráni gitisitán* (Amir Temur) kabi perifrazalar, shuningdek, *vafát bol=, žánni tápšur, bu álamdìn özgä álam sarì ket* kabi evfemizmlar tahlil qilindi.

Amir Temur va boshqa shaxslar, turli holat, voqea-hodisalarni chiroyli tasvirlashda asar muallifi va uning tarjimoniga o‘xshatishlardan foydalanish juda qo‘l kelgan. Shuning uchun ham asarda eng ko‘p uchraydigan tasviriy vosita o‘xshatishlar hisoblanadi. Masalan, quyidagi yaxlit parchada o‘nta o‘xshatish mavjud: 1) *hurdek* (mo‘g‘ul qizlarining siymosi); 2) *aytek* (mo‘g‘ul qizlarining go‘zalligi); 3) *áftázbek* (mo‘g‘ul o‘g‘lonlarining ko‘rkamligi); 4) *paridek* (mo‘g‘ul qizlari nozikligi); 5) *čun guhar* (mo‘g‘ul qizlarining bebaholigi); 6) *ču máh* (mo‘g‘ul qizlarining chehrasi); 7) *čun šakar* (mo‘g‘ul qizlarining lablari); 8) *sarv-u šamšádek* (mo‘g‘ul qizlarining qaddi-qomati); 9) *sarvi arrádek* (mo‘g‘ul qizlarining qaddi-qomati). 10) *behšttek* (joy, Dashti Qipchoq yurti).

Anča hurdek moyul qizlari tüšüb erdikim, hazratqa yüyilyani beš miñdin artuqča erdi. Qizlari barča aytek va oylanlari áftázbek, še‘r:

*Paridek ariq barčasi čun guhar,
Yüzi ham ču máh, lablari čun šakar.
Xirámán bari sarvu šamšádek,
Alar boylari sarvi arrádek.*

Sarv janub mamlakatlarida o‘sadigan ko‘p yillik ninabargli tik daraxt (kiparis)ning forscha nomi bo‘lib, ushbu daraxt tanasining bir chiziqda to‘g‘ri o‘sishi, ya‘ni chiroyli ko‘rinishi insonlarga, asosan, ayollarning xushbichim qomatiga nisbatan o‘xshatish hosil qilinishiga sabab bo‘lib, “qaddi-qomati, bo‘y-basti kelishgan”, “xushqomat”, “sarvqomat” kabi ma‘nolarda qo‘llanadi. *Shamshád* ham janubda doim yashil, tik o‘sadigan chiroyli daraxt va butaning nomi bo‘lib, ayollarga nisbatan “qaddi-qomati tik va kelishgan” ma‘nosida qo‘llanadi.

“Zafarnoma”da o‘xshatish usuli leksik va grammatik vositalar yordamida voqelanishi tegishli misollar yordamida tahlil qilindi.

Bobning 4.3. paragrafi “*Atash ma‘nosiga ega bo‘lmagan so‘zlarning funksional-stilistik xususiyatlari*” deb nomlanadi. XV–XVI asr adabiy tilida qo‘llangan ko‘makchilar ko‘p o‘rinda hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilidagi ko‘makchilarga o‘xshaydi⁷¹. Manba tilida *bilän* ko‘makchisidan tashqari, uning *birlä, bilä, ilä* variantlari ham birdek faol qo‘llangan.

Sarì ko‘makchisi asar tilida 572 marta qo‘llangan: *Sáhibqiráni saádatmand Samarqand sarì mutavajjih boldi* (295 a). Mazkur ko‘makchining *sarì* shakli uchramadi.

Sarì ko‘makchisi⁷² XIII–XIV asrlardan boshlab yozma manbalarda uchraydi⁷³. “Zafarnoma” tarjimasida *sarì* ko‘makchisi faol qo‘llangan: *Saráydin čerik tartib Xurásán viláyati sarì bardì* (6 a). *Sarì* aslida *siñgär* so‘zidan kelib chiqqan deyish haqiqatga yaqindir, chunki X–XIII asrlarda *siñgär* “tomon”, “yo‘nalish”

⁷¹ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. – М.; Л., 1962. – С. 22.

⁷² Рустамов Т. Сари кўмакчиси // Ўзбек тили тарихи масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 67.

⁷³ Абдурахмонов Ғ., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. – Тошкент, 1973. – Б. 203.

ma'nolarida qo'llangan⁷⁴. *Sar* ko'makchisi ravish yasovchi *-in* qo'shimchasini qabul qilgach, *sari* kelib chiqqan⁷⁵.

Sari ko'makchisi ot turkumiga mansub bo'lib, eski o'zbek tilida ko'makchi vazifasida nihoyatda faol qo'llangan⁷⁶. *Sari* chig'atoycha bo'lib, "tomon", "taraf" ma'nolarida qo'llanganini L.Budagov qayd etgan⁷⁷.

Bog'lovchilar ham boshqa yordamchi so'zlar kabi tarixan turli so'z turkumlariga mansub va mustaqil leksik ma'noga ega bo'lgan so'zlar asosida shakllangandir⁷⁸. E.Fozilov *balki* bog'lovchisining XVII– XIX asrlarda uchrashini ta'kidlaydi⁷⁹. "Zafarnoma"da bu bog'lovchi mavjud: *Šáh Jaláliddin anī viláyatiya yol bermādi, balkim kiši yībarīb, viláyatdin anī qavladīlar* (108 b).

"Zafarnoma" tilida eng ko'p uchraydigan so'z va bog'lovchisi bo'lib, 4188 bor qo'llangan: *Va ošandaq boldi va andin saádat va iqbal bilān yuridi* (77 b).

